

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI FAKULTETI

«PENSIYA ISHI» KAFEDRASI

UMIRQULOVA NILUFAR BAXODIR QIZI

**“FRANSIYADA DAVLAT BYUDJETI, BYUDJET TIZIMI VA
BYUDJET JARAYONINI TASHKIL ETISH”**

5231300 -“Pensiya ishi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultet dekani

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

“ _____ ” _____ 2018y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri

_____ i.f.n. B.Mamatov

“ _____ ” _____ 2018y.

Bitiruvchi:5231300 -“Pensiya ishi”
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: _____ fax.prof. G.Kasimova

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. FRANSIYA DAVLAT MOLIYASI VA BYUDJET TIZIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	7
1.1.Davlat byudjeti va byudjet tizimini boshqarishning jahon amaliyoti.....	7
1.2. Fransiya davlat moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va byudjet tizimini boshqarish tamoyillari.....	13
1-bob bo'yicha xulosa.....	21
2-BOB. FRANSIYA DAVLAT BYUDJETI VA BYUDJET JARAYONI BOSQICHLARINI HOZIRGI HOLATINING TAHLILI.....	23
2.1.Fransiya davlat byudjetini tayyorlashning ma'muriy bosqichlari.....	23
2.2.Fransiya byudjet sohasidagi g'aznachilik tizimidan foydalanish amaliyoti.....	34
2.3.Fransiya davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmi.....	38
2- bob bo'yicha xulosa.....	44
3-BOB. BYUDJET SOHASIDAGI FRANSIYA TAJRIBALARI ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BYUDJETINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	46
3.1.Byudjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo'llari.....	46
3.2.O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida Fransiya tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	52
3-bob bo'yicha xulosa.....	59
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	61
FOYDALANILGANADABIYOTLARRO'YXATI.....	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida xalq farovonligini belgilovchi asosiy omillar qatorida davlat moliyasi, davlat byudjeti jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari hamda ularning pul aylanmasining barqarorligi belgilab olindi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida davlat byudjetini tashkil etish va byudjetning g'azna ijrosini ta'minlash ishlari davlatning o'z funktsiya va vazifalarini to'liq ado etish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini Yagona g'azna hisobvarag'iga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobvaraqdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, byudjetdan tashqari fondlar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlar va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida tezkor tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi. Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida vujudga kelgan barcha muammolar byudjet tizimining butunlay yangi qonunchilik asoslarini yaratish, davlat byudjetini boshqarishning sifat jihatidan yangilashni talab qiladi. Bunda bizga byudjetni prognozlashtirish va davlat byudjeti g'azna ijrosida amalga oshiriladigan islohotlar o'zgarishlari ko'mak beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, byudjet ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi»¹.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 2017 yil. 22 dekabr.

Ko'pgina taraqqiy topgan mamlakatlarda vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo'lmaydigan va turli xavf-xatarlar saqlanib qolayotgan bir sharoitda davlat qarzlar va davlat byudjeti taqchilligi tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida byudjet jarayonida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni amalga oshirish, davlat byudjetida moliyaviy resurslar oqimini tartibga solish, moliyaviy mablag'larni yagona xukumat organiga markazlashtirish va davlat moliyasining holati bo'yicha tezkor axborot olish, ushbu axborotlardan byudjet ijrosi jarayonida optimal boshqaruv qarorlari qabul qilishida xorijiy tajribalarni qo'llash masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi byudjet jarayonidagi hozirgi zamon dolzarb muammolarni o'rganish maqsadida bitiruv malakaviy ishimizga «Fransiyada davlat byudjeti, byudjet tizimi va byudjet jarayonini tashkil etish» mavzusi tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishi predmetida Fransiyaning davlat byudjeti, byudjet tizimi va byudjet jarayonlari olingan.

Bitiruv malakaviy ishi obyektini Fransiya byudjet tizimini boshqarish va davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmi tashkil etgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – Fransiyaning davlat byudjeti, byudjet tizimi va byudjet jarayonini o'rganish va O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida Fransiyaning ilg'or tajribalaridan foydalanish yuzasidan xulosa va takliflar berishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

- xorijiy davlatlarning davlat byudjeti tuzilishi va byudjet tizimini o'rganish;
- . Fransiya davlat moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va byudjet tizimini boshqarish tamoyillarini o'rganish;

–Fransiya byudjet amaliyotida g’aznachilik tizimidan foydalanish amaliyotini tahlil qilish;

–Fransiya davlat byudjetini tayyorlashning ma’muriy bosqichlarini tahlil qilish;

–Fransiya davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizminio’rganish;

–O’zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida Fransiya tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko’rsatish;

–O’zbekiston Respublikasi byudjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo’yicha xulosalar tayyorlash;

–O’zbekiston Respublikasida davlat byudjetini boshqarish va davlat byudjeti g’azna ijrosi mexanizmini takomillashtirish yuzasidantavsiyalar va takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan xulosa va takliflarni pensiya amaliyotidaqo’llash imkoniyati mavjud. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishi ma’lumotlaridan oliy o’quv yurtlarida «Davlat byudjeti»,«Mahalliy byudjet»va «G’aznachilik asoslari» fanlarini o’qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishida 5 ta jadval va 7 ta rasm keltirilgan. Jami 76 betdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi, predmeti, ob’ekti, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

«Fransiya davlat moliyasi va byudjet tizimini boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari» nomli birinchi bobda davlat byudjeti va byudjet tizimini boshqarishning jahon amaliyotiko’rsatilgan. Fransiya davlat moliya tizimining o’ziga xos xususiyatlari va byudjet tizimini boshqarish tamoyillario’rganilgan.

«Fransiya davlat byudjeti va byudjet jarayoni bosqichlarini xozirgi holatining tahlili» nomli ikkinchi bobda Fransiya davlat byudjetini tayyorlashning

ma'muriy bosqichlari o'rganilgan. Fransiya byudjet sohasidagi g'aznachilik tizimidan foydalanish amaliyotitahlil qilingan. Fransiya davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmi ko'rsatilgan.

«Byudjet sohasidagi Fransiya tajribalari asosida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini takomillashtirish yo'llari» deb nomlangan uchinchi bobda O'zbekiston Respublikasi byudjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida Fransiya tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

Xulosa va takliflar qismida O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimini takomillashtirish maqsadida Fransiyaning ilg'or tajribalaridan foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalar keltirilgan.

1-BOB. FRANSIYA DAVLAT MOLIYASI VA BYUDJET TIZIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat byudjeti va byudjet tizimini boshqarishning jahon amaliyoti

Davlat byudjeti davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va xududlarda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat byudjeti–davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bulib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdorlari nazarda tutiladi. Davlat byudjeti daromadlari rejasini bajarish, Davlat byudjeti xarajatlarini tashkil etishga oid tamoyillar, mablag'larni maqsadli taqsimlash, tejamkorlik rejimiga qat'iy amal qilish, byudjet intizomiga amal qilinishiga erishish maqsadida davlat samarali moliyaviy nazorat tizimiga ega bo'lishi lozim.

Davlat byudjeti ijrosida daromadlar va xarajatlar rejalari bajariladi, davlatning belgilangan dasturlari ijro qilinadi va byudjet tashkilotlari xarajatlari moliyaviy mablag' bilan ta'minlanadi. Davlat byudjeti g'azna ijrosida eng muhim vazifa qilib, davlatning ichki va tashqi qarzlarini kamaytirish, byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, iqtisodiy-ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va manzilli bo'lishishiga erishish, byudjet mablag'laridan foydalanishni yaxshilash hamda moliyaviy nazorat mexanizmini to'liq ishlashiga erishiladi. Bu vazifalar byudjet mablag'larini egalariga tez va o'z vaqtida etib borishini ta'minlaydi.

Byudjet tizimi – umumijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan byudjet siyosati, byudjet huquqi va byudjet mexanizmini o'z ichiga oladigan moliya-byudjet instituti va jamg'armalarining yig'indisidir.

Rossiya Federatsiyasi iqtisodchilardan I.R.Zaripova, V.R. Xafizovaning fikricha, byudjet islohotlarini rivojlantirish qarorlarini qabul qilishda nazariy jihatdan ko'p

qirrali byudjet tizimi tushunchasining mazmuniga e'tibor beriladi.



1-rasm. Xorijiy davlatlarda byudjet tizimining tarkibi²

Yuqoridagi rasmda xorijiy davlatlardagimoliyaviy, huquqiy va tashkiliy xarakterdagi elementlardan tashkil topgan byudjet tizimining tarkibi ko'rsatilgan. Byudjet tizimi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy tuzulishi, shuningdek, davlat qurilishini aks ettiradi. Mazkur tizim muayyan davlatni tavsiflaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy

²Зарипова И.Р. Хафизова В.Р. История развития и современное состояние межбюджетных отношение в России. УФА. ГП Принт. 2016. -С 45.

xususiyatlarning butun majmui asosida shakllanadi.

Iqtisodchi V.Rodionovanning so'zlari bilan aytganda, byudjet tizimi munosabatlari – jamiyat iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir, byudjet tizimini amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funktsiyalarni bajarishi uchun zarur moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan ob'ektiv ravishda bog'lanadi. Byudjet tizimi – iqtisodiy munosabatlar, davlat tuzilishi va qonun normalariga asoslangan davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishi, byudjet munosabatlarida mustaqil bo'lgan davlat tashkilotlari va jamg'armalarining majmuidir. Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Byudjet amaliyotida turli darajadagi mahalliy byudjetlarning mustaqilligidan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, mintaqaviy daromadlar manbalari belgilanadi, mahalliy byudjetlar daromadlarini o'z daromadlari yoki birlashtirilgan soliqlar va tartibga solinuvchi soliqlar hisobiga shakllantirildi.

Davlat byudjeti o'z iqtisodiy mohiyatiga ko'ra – YaIMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan pul munosabatlari bo'lib, davlat ixtiyoriga kelib tushadigan va bevosita, ijtimoiy ta'minot, mudofaa, boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalanadigan pul resurslarini shakllantirish bilan bog'liq jamiyat boyligining bir qismidir. Davlat, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, turli darajadagi byudjetlar va fuqarolar byudjet munosabatlarining sub'ektlari bo'lib hisoblanadi. Byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi. Byudjet universal moliyaviy reja sifatida mamlakat yoki tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la kamrab oladi. Davlat byudjeti boshqa turdagi moliyaviy rejaga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda byudjet quyidagi vazifalarni

bajaradi³:

- mamlakatda yaratilgan YaIMni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- byudjet tashkilotlarini moliyaviy ta'minlash;
- mamlakatda davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish;
- markazlashtirilgan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish va undan

foydalanishni nazorat qilish.

Unitar davlatning byudjet tizimi ikki bo'g'indan – davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardan tashkil topadi. Masalan, Fransiya, Turkiya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya ikki bo'g'inli byudjet tizimiga ega. Federativ davlatlarning byudjet tizimi uch bo'g'indan iborat:

- Federal byudjet (markaziy hokimiyat byudjeti);
- Federatsiyalar byudjeti (AQShda – Shtatlar, Germaniyada – Erlar (landlar), Kanada – Provintsiyalar);
- munitsipal byudjetlar.

Davlat byudjeti daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar juda ham ko'p, ularga quyidagilarni misol qilish mumkin. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, YaIM hajmi, narxlarning o'sish darajasi, aholining ish bilan bandligi, aholi daromadlari. Shuningdek davlatning fiskal siyosatini keltirish mumkin, masalan, soliq stavkalarini o'zgartirish, ular bo'yicha imtiyozlar berish, xarajatlarni kamaytirish yoki ko'paytirish.

Xorijiy davlatlarning byudjet tizimi tuzilishida uchta model ko'p uchraydi.

- markazlashgan model– bu modelda xarajatlarni moliyalashtirish markazlashgan xarakterga ega, bunda quyi byudjet vakolatlari minimallashtiriladi;
- markazlashmagan model – regional va munitsipal byudjetlar mustaqil bo'lib, xarajatlarini daromadlaridan o'zi qoplaydi, markazdan aralashuv minimallashtiriladi;


³Марченко Г.В., Мачулская О.В. Финансовые механизмы межрегионального выравнивания // Финансы и кредит. 2016. № 1. С. 15.

- aralash model– byudjetni balanslashtirishda gorizantal va vertikal usullardan foydalaniladi, federal markazning javobgarligi oshiriladi.

AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq, soliq solish huquqini faqat federal va hududiy hukumatlarga beriladi, bu paytda mahalliy organ boshqaruvi shtatlar boshqaruvi organlari qarorlariga muvofiq soliqni belgilash va yig'ish huquqini olishadi. AQSh soliq tizimining alohida xususiyati shundan iboratki, har bir bo'g'in byudjeti faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan soliqlar tushumini hisobga oladi va taqsimlash huquqiga ega. Shunday qilib AQShda soliq yig'implari tushumining bir hukumat tomonidan boshqariladigan va turli xil byudjetlar o'rtasida taqsimlanadigan amaliyoti yo'q. Bunday tartib ko'p jihatdan turli xil bo'g'inlardagi boshqaruv organlariga yirik fiskal mustaqillik va o'zlariga biriktirilgan soliqlar, ularning stavkasi va bazasi ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

AQShda Kongress Bosh nazorat boshqarmasi va Kongress Byudjet Boshqarmasi bevosita Kongress tarkibiga kiradi, Kongress tasdiqlagan byudjet mablag'lari sarflanishini nazorat qiladi va Kongressga uzluksiz hisobot beradi. Germaniyada Byudjet komissiyasi byudjet ijrosi bo'yicha hukumat yig'ilishlarida qatnashadi, joriy nazoratni olib boradi, jumladan Moliya vazirligining byudjet mablag'lari sarflanishi to'g'risidagi choraklik hisobotini tinglaydi va hukumat uchun kredit berish masalalarni hal qiladi. Fransiyada Hisob palatasi har yil yakuni bo'yicha byudjet ijrosi bo'yicha hisobotni tekshiradi va xulosani Parlamentga va Prezidentga topshiradi. Yaponiyada esa Hisob palatasi har yili Parlamentga byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobot beradi va bu hisobot Hukumatning byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotiga xulosa sifatida qabul qilinadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, byudjet federalizmi nazariyasiga ko'ra resurslarni markazlashtirmaslik usullari hamda o'z-o'zini boshqaradigan hududiy birliklar miqyosini, ularning byudjetini to'ldirish va xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmlarini oqilona tanlash tamoyillariga javob beradigan tendentsiyalar mavjud. Byudjet federalizmi nazariyasi iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga javob beradigan byudjet tuzilmalarining o'zaro munosabatlari va ta'sirini ko'rsatadi. Quyidagi rasmda byudjet federalizmi modellari berilgan.



2-rasm. Byudjet federalizmi modellari⁴

Zamonaviy byudjet tizimini shakllantirish, Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy va federativ tuzilishiga javob beradigan byudjet tizimini shakllantirish davlatning siyosiy va iqtisodiy barqarorlashtirishning asosiy shartiga aylandi. Bu tizimning asosida turli darajadagi hokimiyatlar o'rtasidagi byudjet-soliq mexanizmlari yotadi. Ushbu tamoyillar va mexanizmlarning yig'indisi «byudjet federalizmi» tushunchasi bilan bog'lanishi qabul qilingan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi va Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarining byudjet sohasidagi ishlarni olib borish va vakolatlarini chegaralash byudjet federalizmi asoslarini tashkil etadi.

Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimi – Rossiya Federatsiyasining davlat tuzilishiga va iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi. Federal byudjet, Rossiya Federatsiyasining byudjet sub'ektlari, mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlar byudjetini boshqarishning huquqlari va normalari yig'indisiga asoslanadi. Rossiya Federatsiyasida 1991 yildan markazlashgan rejalashtirish tizimi faoliyati yakunlanganidan keyin byudjetlararo munosabatlar tizimi paydo bo'la boshladi. Yangi tizim quyi byudjetlarga beriladigan moliyaviy yordamlar tizimi shakllandi,

⁴Марченко Г.В., Мачулская О.В. Финансовые механизмы межрегионального выравнивания // Финансы и кредит. 2016. № 1. С. 15.

alohida hududlarni teng bo'lmagan rivojlantirish boshlandi.

Byudjet federalizmi markaz va hududlar o'rtasidagi byudjet munosabatlarini bildiradi. Mahalliy byudjetlarning umumdavlat xarajatlaridagi ulushini ko'rsatadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha yuqori, mahalliy byudjet xarajatlarning kattagina qismini byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi xarajatlari va ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov tashkil etadi. Byudjet federalizmi to'g'risidagi nazariy fikrlarda qayd etilishicha, byudjet federalizmining samaradorligi mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'z xarajatlari haqida o'zlari qaror qabul qilinganda va ularni mahalliy soliqlar hisobiga qoplanganda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, markazlashtirishning barcha afzalliklarini qo'lga kiritish va risk ehtimolini iloji boricha kamaytirish uchun tegishli moliyaviy resurslar va soliq daromadlarini to'g'ri shakllantirish hamda ulardan foydalanish sohasida xarajatlar vakolatlari bilan mustahkamlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «..Mamlakatimizda inson manfaatlari bilan bog'liq masalalarni hal etishda bizning saylovoldi dasturimizdan joy olgan, hozirgi kunda ishlab chiqilayotgan maqsadli dasturlar muhim o'rin tutadi. Bu dasturlar odamlarning turmush darajasi va sifatini yanada oshirishni ta'minlashga qaratildi. O'zbekiston Respublikasida «nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi»⁵. Mazkur xarajatlar respublika byudjeti tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi.

1.2. Fransiya davlat moliya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va byudjet tizimini boshqarish tamoyillari

Fransiya hududi mamlakatni kommuna, departament, region, uchastka, okrug, kommuna kabi ma'muriy birliklar va hududiy jamoalarga bo'lish orqali

⁵Mirziyoyev Sh.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – Yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2016 yil. 8 dekabr.

boshqariladi. Ushbu ma'muriy birlik va hududiy jamoalarni idora qilish ayni bir vaqtning o'zida bilvosita boshqaruv va erkin idora qilish tartibi asosida tashkil etiladi. Byudjetni boshqarish usuli davlat birligi va yaxlitligini saqlab qolgan holda «o'z-o'zini boshqarish» tushunchasiga asoslanadi.

1-jadval

Fransiyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi⁶

Fransiyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi			
TVR	Hududiy bo'linishi		Bo'linmalar ma'muriyati
	Nomlanishi	Soni	
1	Region	22	Ijrochi shaxs: Region kengashi Prezidenti Mahkama organi: Region kengashi
2	Departament	96	Ijrochi shaxs: Bosh kengash Prezidenti Mahkama organi: Bosh kengash
3	Okrug		Suprefekt: Prefekt yordamchisi
4	Uchastka	3827	Ijrochi shaxs: Kommuna meri Mahkama organi: Mahalliy kengash
5	Kommuna	36657	Ijrochi shaxs: Kommuna meri

Mahalliy hokimiyat boshqaruvi yuzasidan vazifalar «Mahkama kengashi organi» va «ijrochi organ» hisoblanadigan ikki turdagi organ o'rtasida taqsimlanadi. Hududiy jamoalar davlat ma'muriy boshqaruvidan ajratilgan alohida ma'muriy tarkib sifatida ma'lum bir hududdagi aholining manfaatlari haqida qayg'urish hamda ularni himoya qilish bilan shug'ullanadi.

«Har qanday Konstitutsiya mamlakat tarixining asosiy bosqichlari, real ijtimoiy turmushi, g'oyaviy-huquqiy qadriyatlari va an'analarini aks ettiradi.

⁶ Практика государственного управления во Франции: Государственное казначейства. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества. 2012. –С.17.


Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi buning yaqqol isbotidir. Unda frantsuz konstitutsiyaviy huquqiy institutlari, siyosiy demokratiya va huquqiy madaniyatning tarixiy rivojlanish tajribasi va byudjet tizimini boshkarish asoslari o'z aksini topgan»⁷. Konstitutsiya joylardagi mahalliy hokimiyatning tuzilishini ham belgilab berdi. Bunda mahalliy institutlarning hamda markaziy hokimiyatning o'z vazifalari aniq qilib ko'rsatilgan bo'lib, ular bir-biridan «erkin idora qilish» va «bilvosita boshqarish» tushunchalari orqali farqlanadi. Bu tushunchalar turli darajadagi jamoat tashkilotlari va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatni tashkillashtirish mexanizmini ifodalaydi. Konstitutsiya joylardagi mahalliy hokimiyatning tuzilishini ham belgilab berdi. Bunda mahalliy institutlarning hamda markaziy hokimiyatning o'z vazifalari aniq qilib ko'rsatilgan bo'lib, ular bir-biridan «erkin idora qilish» va «bilvosita boshqarish» tushunchalari orqali farqlanadi. Bu tushunchalar turli darajadagi jamoat tashkilotlari va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatni tashkillashtirish mexanizmini ifodalaydi.

Fransiya hukumatini tashkil etuvchi vazirliklar soni vazifalar salmog'iga qarab turli davrlarda turlicha bo'lgan. Shu bois, faqat turg'un xarakterdagi vazirliklarga mahalliy darajada o'z bilvosita boshqariladigan bo'linmalariga ega. Har bir vazir o'z kabineti va idorasiga ega bo'lib, uning idorasi boshqarmalar va milliy darajadagi vakolatga ega bo'lgan bo'limlardan tashkil topgan. Boshqarmalar tuli bo'limlardan tashkil topgan bo'lib, ba'zida bir necha qismlarga ajratilgan va vertikal yoki gorizonatal ko'rinishda boshqarilishi mumkin.

Milliy darajadagi vakolatga ega bo'lgan bo'limlar markaziy rahbariyatdan farqlanib, vazirga topshirilgan mamlakat miqyosidagi maxsus vazifalar bilan shug'ullanadi. Fransiyada davlat moliyasi asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bularning birinchisi davlat moliyaviy boshqaruviga oid tashkiliy jihat bo'lsa, ikkinchisi davlat moliyaviy faoliyatining amaliy jihatidir. Tashkiliy jihatdan Moliyaviy boshqaruv Moliya vaziri, o'z-o'zinini erkin idora qiluvchi

⁷Saidov A.X. Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi o'zbek yuristi nigohida: o'zbek, frantsuz va rus tillarida.-T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.-S.7.

rahbariyatlar hamda Konstitutsiyada ko'zda tutilgan boshqa ma'muriyatlar kabi uchta asosiy ma'muriy tuzilma o'rtasida taqsimlangan. Konstitutsiyada ko'zda tutilgan boshqa ma'muriyatlar, bular bir tarafdin alohida ahamiyatga ega bo'lgan Parlament va ikkinchi tomondan davlat moliyati zimda jiddiy rol o'ynaydigan hukumatdir.



3-rasm. Fransiyaning vazirliklar tarkibiga kiruvchi bilvosita boshqariladigan organlar⁸

Soliq siyosatiga rozilik berish shuni anglatadiki, deputatlar davlat tomonidan undiriladigan soliq turlari va stavkalariga ovoz berish yo'li bilan ularning undirilishiga rozilik beradilar hamda shu orqali davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining uyg'unligini taminlanadi. Yangi byudjet tamoyillaridagi ahamiyati shundaki, Parlament byudjet tayyorlash jarayonida qatnashadi va bu byudjet

⁸ Абалмаз В.В. Бюджетное устройства Франции. // Инновационная наука. 2017 год. №.7. – С.11.

ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Byudjetning g'azna ijrosidagi o'rni yangi byudjet tamoyillarining uzviy davomi hisoblanadigan byudjetni tartibga soluvchi qonunga ovoz berishi bilan belgilanadi.

Hukumatga davlat siyosatining yo'nalishlarini aniqlash va uni yuritish bilan birga moliyaviy ajratmalar miqdorini o'zgartirish huquqi ham beriladi, lekin bu hamisha Parlament nazorati ostida amalga oshiriladi. Fransiya Moliya vaziri va uning o'rnini bir vaqtning o'zida ham davlat boshqaruvida, ham ma'muriy boshqaruvda ko'rish mumkin.

Moliya vazirining davlat boshqaruvidagi roli ham juda muhim hisoblanadi, quyidagi uchta yo'nalishning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

1. Soliq boshqarmalari;
2. Iqtisodiyot boshqarmalari;
3. Iqtisodiy siyosat va G'aznachilik bosh boshqarmasi.

Soliq boshqarmalari asosan quyidagi soliq-moliya tashkilotlaridan iborat: Bojxona va davlat bojlari bosh boshqarmasi; Soliq bosh boshqarmasi; Davlat buxgalteriya hisobi bosh boshqarmasi.

Iqtisodiyot boshqarmalari tarkibiga ikki turdagi boshqarma kiritiladi. Birinchisi, Raqobat boshqarmasi, Istemolchilar huquqini himoya qilish va soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash bosh boshqarmasidir. Ikkinchisi esa o'z navbatida bir qancha ilmiy o'rganish xarakteridagi ichki kismalarga bo'linib ketadi. Bular quyidagilardan iborat : iqtisodiy hisob-kitob bilan shug'ullanadigan «Iqtisodiyotni ilmiy o'rganish va milliy statistika Instituti», «Tashqi iqtisodiy aloqalar bosh boshqarmasi, Sanoat, energetika va Atom-yadro stantsiyalarini joylashtirish va xavfsizligini ta'minlash bosh boshqarmasi».

Iqtisodiy siyosat va G'aznachilik bosh boshqarmasi o'ziga xos alohida o'ringa ega. Chunki u davlat sektori va iqtisodiyot faoliyatni tartibga solib turuvchi moliyaviy tizim yuzasidan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda asosiy rol o'ynaydi. Bu boshqarma, xususan, moliyaviy va iqtisodiy o'zgarishlar yuzasidan chuqur tahlil asosidagi yaxlit va umumlashgan tasavvur beruvchi axborotlar bilan ta'minlab turadi. U ma'lum xodimlar soniga ega bo'lsada, hududiy

bo'linmalarga ega emas. O'z-o'zini erkin idora etuvchi rahbariyatlar tarkibiga o'z byudjetiga ega bo'lgan hamda byudjet va qonun nazoratiga bo'ysunadigan mahalliy rahbariyatlar kiradi (Hududiy jamoalar, jamoa tashkilotlari). Davlat rahbariyati yuritadigan moliyaviy faoliyat davlat moliya siyosatiga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu moliyaviy siyosat esa real moliyaviy faoliyatni ifodalaydigan bir qancha davlat moliyaviy daromadlari va xarajatlari, moliyaviy nomutanosiblik, byudjet taqchilligi hamda taqchilligini boshqarish kabi tushunchalarni o'zida qamraydi.

Fransiya davlat moliyasini boshqarishda uch turdagi asosiy qonun-qoidalar va ularga tegishli bo'lgan tushunchalar mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

- byudjet tuzilishiga tegishli byudjetga oid qonun-qoidalar;
- byudjet ijrosiga oid buxgalteriya va hisobot qonun-qoidalar;
- davlat byudjeti daromadlari va soliqlar yuzasidan fiskal qonun-qoidalar.

«Byujet» tushunchasi davlat va jamoa tashkilotlarining daromad va xarajatlari ko'zda tutilgan va ushbu daromad va xarajatlar ruxsat etilgan hujjat yoki hujjatlar to'plami sifatida tushuntiriladi. Byudjet eng avvalo «hisobot» tushunchasidan tubdan farqlanadigan «prognoz aktidir». Shuningdek, byudjet, Kengash rahbariyati tomonidan ijrochi rahbariyatga, ya'ni siyosiy rahbariyat tomonidan ma'muriyatga beriladigan «ruxsat»ni ham ifodalaydi.

Fransiya Moliya qonunlari to'plami bir necha turdagi moliyaviy qonunlardan iborat. Fransiya Bosh moliya qonuni davlat hayotining eng muhim hujjati hisoblanadi, uning tayyorlanishi uchun bir yil kerak. Faqat mana shu hujjatdagina kelgusi yil uchun har bir vazirlikka tegishli byudjet ajratmalari va soliq qonunchiligidagi muhim yangi o'zgartirishlar aks ettiriladi. Tartibga soluvchi moliya qonunlari yil mobaynida Fransiya Bosh moliya qonunida ko'zda tutilgan ajratmalarga o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bu esa hukumat uchun, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy shart-sharoit va boshqa parametrlarni hisobga olib dastlabki byudjet ajratmalarini o'zgartirish va tartibga solib turish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonunlar va ularda ko'zda tutilgan ajratmalar Parlament roziligi asosida bo'lishi shart. Shuningdek ushbu qonunlar, jiddiy siyosiy o'zgarish

yuz bergan hollarda Fransiya Bosh moliya qonuni o'rnida amal qilishi mumkin.

To'g'rilovchi qonun maqsad va mazmun jihatidan Fransiya Bosh moliya qonuni va tartibga soluvchi moliya qonunlaridan farq qiladi. Unda moliyaviy natijalar qayd etiladi va byudjet ijrosi bo'yicha hisobot tasdiqlanadi. To'g'rilovchi qonunning ahamiyati shundaki, u ma'lum byudjet yilidagi haqiqiy byudjet taqchilligini o'zida aks ettiradi. Chunki ko'pincha Bosh moliya qonunida ko'zda tutilgan va ruxsat etilgan byudjet ajratmalari va to'g'rilovchi qonunda qayd etilgan natijalar o'rtasidagi tafovut juda sezilarli bo'ladi. Maxsus moliya qonunlari Fransiya Bosh moliya qonunini ishlab chiqish va taqdim etish kechikkan hollardagina qabul qilinadi. Byudjet ajratmalari xarajat qilish uchun ruxsat etilgan miqdorni belgilaydi va yuridik tushuncha hisoblandi. Lekin buni moddiy tushuncha hisoblanadigan kassadagi mablag' tushunchasidan farqlash lozim. Chunki byudjet ajratmalari etarli miqdorda mablag' mavjud bo'lmasada ruxsat etilishi yoki etarli mablag' bo'lsa ham to'lovdan rad etilishi mumkin. Ushbu ajratmalar aniq bir tashkilot rahbariyatiga aniq bir maqsad yo'lida, aniq bir davr mobaynida va aniq bir miqdorda sarflashi uchun ajratiladi.

Fransiyabyudjet tizimini boshqarishda belgilangan tamoyillarga rioya qilish talab etiladi.

Byudjetning bir yillik tamoyili faqatgina bir yil mobaynida byudjet ishlab chiqishni va ijro etishni talab etadi. Fransiyadabir byudjet yili bir kalendar yili bilan mos tushadi. O'z- o'zidan ravshanki, ushbu tamoyil, eng avvalo ma'lum bir siyosiy asoslarga ega bo'lib, byudjet rahbariyati tomonidan davlat mablag'larini yanada yaxshiroq boshqarilishiga imkon beradi. Undan so'ng esa tartibga solish, solishtirib tekshirish zarurati va boshqa shu kabi amaliy sabablarga ham ega, ko'zda tutilgan byudjet ajratmasining yil oxirida ortib qolgan qismi bekor qilinadi. Faqatgina uchta asosiy sababga ko'ra bir yillik byudjetni o'zgartirishga yo'l qo'yiladi. Bular ba'zi operatsiyalarning uzoqqa cho'zilishi, byudjetlar ko'lami va murakkabligi sababli hamda byudjet ajratmalarining noqonuniy ishlatilishini oldini olish maqsadida egiluvchan boshqaruvga ruxsat berish zaruratidir. Bularni amalga oshirishning bir qancha yo'llari mavjud. Birinchidan, hukumatning siyosiy

dasturiga muvofiq bir yillik yoki uch yillik byudjet qabul qilish. Ushbi uslub Fransiyada qo'llaniladi. Ikkinchidan, ko'p yillik byudjet ajratmalari usulini qo'llash. Ushbu usul Fransiyada qo'llaniladigan asosiy usul bo'lib, amalda «Qo'shma byudjet ajratmalari» deb ataladi. Qo'shma byudjet ajratmalari byudjet ajratmalari va byudjet to'lovi kabi ikki tushunchani o'zida qamraydi. Byudjet ajratmalari har yili byudjetda ko'zda tutiladigan ya'ni xarajat qilishga ruxsat etilgan mablag' miqdorini bildirib zarurat tug'ilganda bir yildan ikkinchi yilga o'tkazilishi mumkin. Byudjet to'lovi esa faqatgina bir yil mobaynida to'lanishi ko'zda tutilgan mablag' miqdorini anglatadi. Uchinchidan, global rejalashtirishni nazarda tutuvchi yoki davlat sektori bo'yicha dasturlar ishlab chiqish orqali ko'p yillik asosda bir yillik byudjet qabul qilish.

Byudjetning ixtisoslashganlik tamoyili ikki holatni nazarda tutadi: xuquqiy jihatdan ixtisoslashganlik hamda buxgalteriya nuqtai-nazaridan ixtisoslashganlik. Buxgalteriya nuqtai-nazaridan ixtisoslashganlik shuni anglatadiki, har bir so'ralgan byudjet ajratmalari va xarajat qilinishi ko'zda tutilgan ish-faoliyat eng mayda detallarigacha aniq qilib ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Ya'ni bu tamoyil xarajatlarning turi va dastur jihatidan etarli darajada aniqlashtirilgan bo'lishini talab etadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tamoyil xarajatlarning manzillik yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashuvdir. Xuquqiy jihatdan ixtisoslashganlik tushunchasi har bir xarajat turi tarkibini, uni olgan byudjet tashkiloti tomonidan byudjet rahbariyati ruxsatisiz o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmasligini nazarda tutadi va har bir xarajat turi turli mayda qismlarga bo'lib aniqlashtirilishi shartini qo'yadi. Byudjet birligi tamoyili byudjetning yagona hujjat ko'rinishiga ega bo'lishini talab etadi. Lekin zamonaviy byudjetning juda keng ko'lamliligi va murakkabligi Fransiya moliyaviy ma'muriyati oldiga bitta bosh byudjet hamda unga ilova qilinadigan bir qancha ixtisoslashgan byudjetlar ishlab chiqish majburiyatini qo'ymoqda. Ushbu ilova qilingan byudjetlar rivojlanishga oid hujjatlarni o'zida jamlagan holda ishlab chiqiladi.

Byudjetning umumiylik tamoyili ma'lum bir aniq daromad turini ma'lum bir aniq xarajat turining manbasi sifatida ko'rsatilishini taqiqlaydi. Ya'ni byudjetning

barcha daromadlari yagona hisobraqamiga kelib tushishini va xarajatlarning taqsimlanishini, byudjetni mablag' bilan ta'minlab turgan daromadlar manbasini hisobga olgan holda amalga oshirilishini talab etadi.

Haqqoniylik va xolislik tamoyili tushunchasi byudjet parametrlarining haqqoniyligi hamda byudjetni baholashdagi xolislikni o'zida ifodalaydi. Byudjetni baholashdagi xolislik byudjet daromad va xarajatlarini to'g'ri baholashni talab etadi. Byudjet prognoz hujjati bo'lgani uchun haqqoniylik tushunchasi ushbu xolatda nisbiy ko'rinish kasb etadi. Byudjet perimetrlarining haqqoniyligi esa byudjetda undan manfaatdor tashkilotlar faoliyatining barcha jihatlarini ko'zda tutilgan bo'lish shartini qo'yadi. Bundan tashqari Fransiya o'ziga xos ma'muriy, siyosiy va tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, davlat moliya tizimi ham shunga mos ravishda tashkil etilgan. Demak, moliya tizimi va byudjet tizimini chuqur o'rganish uchun davlat tuzilishini ham bilish talab etiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Fransiyadavlat moliyasini boshqarishda Parlamentning o'rnivaahamiatini uchta asosiy yo'nalishida ko'rish mumkin.

- soliq siyosatiga rozilik berishda;
- yangi byudjet tamoyillariga rioya qilishda;
- davlat byudjetning g'azna ijrosida.

Fransiya Moliya vazirining ma'muriy boshqaruvdagi o'rnini ikki ko'rinishda guruhlash mumkin. Birinchidan, Moliya vazirining byudjet tizimidagi katta ahamiyatga ega bo'lib, Byudjet boshqarmasi vositasida moliya qonuni loyihasini tayyorlash va byudjet ajratmalarini to'g'ri taqsimlashni ta'minlaydi. Ikkinchidan, Hisob palatasi va uning hududiy bo'linmalari bilan birgalikda davlat moliyaviy nazoratini ta'minlovchi bosh bo'g'in hisoblanadi.

Fransiya moliya tizimida ikki darajadagi byudjet mavjud bo'lib, davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardir. Mahalliy byudjet turli darajadagi jamoalarning byudjetlarini ifodalab unda mahalliy daromad va xarajatlar aks ettiriladi. Davlat byudjeti davlat soliqlari, turli yig'imlar hamda qarzlar orqali moliyalashtiriladi,

Fransiya byudjeti hududiy jamoalarga dotatsiya va subventsiyalar uchun ajratmalar va boshqa turli xarajatlarni ko'zda tutadi. Davlat byudjeti bir qancha qismlarga bo'lingan bo'lib, bular bosh byudjet hamda bir guruh maxsus hisobraqamlar va qo'shimcha byudjetlardir. Ushbu maxsus hisobraqamlar va qo'shimcha byudjetlar bosh byudjetdan farqlanadi. Birnecha yilni nazarda tutadigan yoxud, uzluksiz ravishdagi aniq bir turga mansub daromad va xarajatlarni o'zida aks ettiruvchi davlat byudjetining ma'lum qismlaridir. Har bir maxsus hisobraqam va qo'shimcha byudjetlarning daromadlar va xarajatlari o'rtasidagi farq orqali byudjet qoldig'i (saldo) hisoblanadi. Ayni vaqtda ushbu qoldiqlar umumiy davlat byudjeti qoldig'ining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Fransiyabyudjet tizimini boshqarishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish talab etiladi:

1. Byudjetning bir yillik va ko'p yillik tamoyili.
2. Byudjetningixtisoslashganlik yoki aniqlik tamoyili.
3. Byudjet birligi tamoyili.
4. Byudjetningumumiylik tamoyili.
5. Byudjetning haqqoniylik (xolislik) tamoyili.

2-BOB. FRANSIYA DAVLAT BYUDJETI VA BYUDJET JARAYONI BOSQICHLARINI HOZIRGI HOLATINING TAHLILI

2.1. Fransiya davlat byudjetini tayyorlashning ma'muriy bosqichlari

Fransiyada eng samarali va mukammal byudjet tayyorlash uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar moliyaviy holat bilan hisobga olinadi. Bu o'z navbatida demokratiya talablariga xizmat qiladi. Shu maqsadda Fransiya Moliyaviy boshqaruvi yangicha tarzda isloh qilindi, «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» (MMBQ) deb nomlanuvchi, byudjet tuzilishi va boshqaruviga oid yangi me'yorlar ishlab chiqildi. «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuniga ko'ra, «iqtisodiy prognozlar» iqtisodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi muhim generator bo'lganligi uchun byudjet tayyorlanishida uning hisobga olinishi o'ta dolzarb deb belgilandi. Iqtisodiy prognozlar iqtisodiyotning turli sohalarida joriy va keyingi yillarda erishilishi mo'ljallangan va zarur bo'lgan natijalarni yoritib beruvchi bir qancha dasturlarni o'z ichiga oladi. Davlat byudjetining bosh maqsadi- qisqa muddatli davlat iqtisodiy siyosatini yoritib berishdan iborat. Uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan rejalar davlat dasturidan o'rin oladi. Bu prognozlar «Iqtisodiyotni ilmiy o'rganish va milliy statistika instituti»ning amaliy yordami bilan Prognozlar boshqarmasi tomonidan ishlab chiqiladi. Yil mobaynida moliyaviy siyosat va iqtisodiy siyosatning yangi yo'nalishlari va o'z garishlarini aniqlash va byudjet tayyorlanishini ularga muvofiqlashtirish maqsadida bir necha marta qayta ko'rib chiqiladi.

Davlat byudjetining asosi hisoblanadigan ushbu prognozlarning qanchalik haqiqatga yaqinligi iqtisodiy ekspertlardan tuzilgan Milliy iqtisodiy qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng esa moliyaviy qonun loyihasiga ilova qilinadigan «Ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy hisobot»ga qo'shib qo'yiladi. Ushbu ma'lumotlar ovoz berish jarayonida Parlament uchun oddiy axborot vositasini bajarsada, Hukumat uchun iqtisodiy va byudjet siyosatining yo'nalishlarini belgilashda juda muhim hisoblanadigan dastur bo'lib xizmat

qiladi. Iqtisodiy byudjetda N-1 va N (o'tgan va joriy) yillarga tegishli uch toifadagi ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Bular mamlakatdagi moddiy ne'matlar va xizmatlar tengligidir, ya'ni talab va taklifning yoki resurslar va iste'molning o'zgarishi demakdir. Uchinchi toifadagi ma'lumotlar turli iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlar va moliyaviy operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Uchinchi toifada malumotlar esa asosan o'ta muhim iqtisodiy muvozanatlarga qaratilgan bo'lib, bularga mamlakatdagi moliya va valyuta muvozanati, tashqi savdo aylanmasi va davlat moliyasiga oid axborotlar aks etadi.

Davlat moliyaviy prognozlarini Fransiyaning yangi «moliyaviy konstitutsiyasi» sifatida e'tirof etilayotgan «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» (MMBQ) vositasida jiddiy o'zgartirildi. MMBQ ning bosh g'oyasi - bu (byudjetdan ajratilgan mablag'larni nazarda tutuvchi) «mablag'» tushunchasini (eng avvalo erishilishi zarur bo'lgan natijalarni inobatga olib ish ko'ruvchi xususiy tashkilot falsafasiga o'xshab ketadigan) «natija» tushunchasi bilan bog'lashni nazarda tutadi.

MMBQ nafaqat samaradorlikka asoslangan yangi turdagi byudjetni ishlab chiqishni nazarda tutadi, balki yangi boshqaruv shaklini yo'lga qo'yish hamda yangicha hisob yuritish va hisobotlar tizimining yaratilishini ham belgilaydi.

Shunday qilib MMBQ davlat va jamiyat boshqaruvida chuqur va izchil islohotlar o'tkazish zaruratini keltirib chiqaradi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, MMBQning eng katta yutug'i.

Jamiyat boshqaruvining o'zgartirilishi va byudjet sohasini isloh qilinishidadir. «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatining muvozanatini belgilab beradi. Darhaqiqat, Parlament MMBQning barcha bosqichlarida, hoh byudjet tasnifini ishlab chiqishda bo'lsin, hoh erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar va natijalarning belgilanishida bo'lsin Milliy Assambleya va Senat qoshidagi moliyaviy komissiyalar yordamida faol qatnashadi. Bundan tashqari, «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonunining yana bir kuchli jihati uning demokratik ahamiyatida bo'lib, u xalqning davlat faoliyatiga bo'lgan ishonchini yuksaltirish

maqsadida davlat byudjetining fuqarolar uchun ochiq va tushunarli bo'lishini taminlaydi.

Xulosa qilib aytganda, byudjetga nisbatan bunday yangicha yondoshuv bir vaqtning o'zida quyidagi ijobiy jihatlarga ega.

- davlat ma'muriy boshqaruv xodimlarining samaradorligini oshirish;
- Hukumat va Parlamentning byudjet jarayonlarida o'rnini muvozanatga keltirish;
- byudjetning fuqarolarga tushunarli va ochiq bo'lishini ta'minlash orqali demokratiyani mustahkamlash.

Byudjetni prognozlashtirish moliyaviy byudjetning ishlab chiqilishining boshlanishi ifodalaydi hamda daromad va xarajatlarning baholanishini o'z ichiga oladi. Daromadlarning baholanishijuda aniq modellar vositasida to'g'ridan- to'g'ri amalga oshirilib, bir vaqtning o'zida iqtisodiy faoliyatga ham, ko'zda tutilayotgan tadbirlarga ham ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'sirini aniqlashga imkon beradi.

Xarajatlarning baholanishini muhim rivojlangan bosqichga ko'tarish nazarda tutilgan. Odatda kelgusi yil xarajatlari o'tgan (N-1) yildagi byudjet ajratmalari va kelgusi yilda ko'zda tutilgan yangi tadbirlar asosida aniqlanadi. Kelgusi yil uchun so'raladigan byudjet ajratmalarini o'tgan yilgi xarajatlarga tayanib aniqlanadigan hamda byudjet mablag'larining harakatsizligini keltirib chiqaradigan ushbu usul qattiq tanqid qilindi. Fransiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, byudjet tashkiloti rahbari uchun tashkilotdagi mablag'ga bo'lgan ehtiyojning kamayishini tan olish juda qiyin. «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» o'tgan yillarda tasdiqlangan xarajatlarga tayanib ish ko'rishni bekor qilish bilan birga «so'nggi evropacha byudjetlashtirish» tamoyiliga amal qiladigan «maqsadli dasturli byudjetlashtirish» tushunchasiga asoslangan tizimni o'rnatdi.

MMBQning asosiy yangiligi byudjet ajratmalarini yo'naltirilgan maqsadlilik bo'yicha guruhlovchi yangi byudjet tasnifini ishlab chiqilishidadir. Parlament tomonidan byudjetdan ajratilgan mablag'larning barcha miqdorini

«Missiya» vositasida nazorat qilinadi, «Dastur»ga mas’ul shaxsdan xarajatlarni «maqsadli dasturli byudjetlashtirish»nitalab qilishga imkon yaratadi. Demak, o’tgan yilgi ma’lumotlarga tayanib ish ko’rish metodi yo’q qilindi, uning o’rniga har yili ushbu yil uchun ishlab chiqilgan dasturlar talab etadigan mablag’larni asoslab berish talab etiladi. MMBQ davlat byudjetini har bir soha bo’yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga mos keluvchi birliklar va missiyalar bo’yicha tuzish va ovozga qo’yishni talab etadi. Missiyama’lum bir davlat siyosati bilan belgilanadi. Bu Parlament uchun ovoz birligi hisoblanib, byudjet siyosatini tanlashda muhim asos bo’lib xizmat qiladi.

Har bir byudjet missiyasi bir qancha dasturlarni o’z ichiga oladi. DasturParlament tomonidan ruxsat etilgan, biror vazirlik tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatiga mos keluvchi maxsus byudjet birligidir. Dasturga mas’ul bo’lgan rahbar shaxs « dastur javobgari » deb ataladi. Har bir dastur bir qancha aksiyalarga bo’linadi. Har bir vazir har bir dastur bo’yicha aniq maqsadga mo’ljallangan xarajatlarni ishlab chiqishi va shuningdek, bu xarajatlar narx, erishilishi ko’zlangan natijalar va ko’rsatkichlar (indikatorlar) tarzida yillik samaradorlik loyihasida aks ettirilishi zarur. Yillik samaradorlik loyihasida byudjet loyihasida so’ralgan byudjet ajratmalarini asoslashda hamda yillik samaradorlik hisoboti deb nomlanuvchi byudjet ijrosi yuzasidan tayyorlanadigan yillik hisobotni ishlab chiqishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Yillik samaradorlik hisoboti odatda, kelgusi yilMMBQning ijro etilishi oldidan, tugayotgan yil byudjeti ijrosining tahliliga bag’ishlangan To’g’rilovchi moliya qonuni loyihasiga ilova qilinadi.

Byudjet xarajatlari davlat dasturlarini tavsiflash bilan birga bajarilgan vazifalar, iste’molchilarga ko’rsatilgan xizmatlar hamda davlatning iqtisodiyotga aralashish siyosatining maqsadini aniqlaydi. Bu esa, har bir dastur tarkibidagi xarajatlar, byudjetdan ajratilgan mablag’larni shu dasturning maqsadiga muvofiq bo’lgan ma’lum toifalarga guruhlashtirish orqali tushuntiriladi.

Fransiya Bosh byudjetida ko'zda tutilgan missiya va dasturlar⁹

Missiya nomi	Dastur soni	Javobgar vazirliklar	Boshbyudjetda ajratilgan mablag'lar (mlrdevroda)
Davlat tashqi ishlari	4	Tashqi ishlar vazirligi	2,4
Davlat hududiy va umumiy boshqaruvi	3	Ichki ishlar vazirligi	2,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va boshqa qishloqqa oid ishlar	4	Qishloq xo'zaligi vazirligi	2,9
Rivojlanishga qaratilgan davlat yordamlari	2	Iqtisodiyot, Moliya va Tashqi ishlar vazirliklari	3,0
Urush qatnashchilari va nogironlar, xotira va qadrlash	3	Mudofa vazirligi	3,9
Davlat ishlarini nazorat qilish va kengashlar	3	Bosh vazir	0,4
Madaniyat	3	Madaniyat vazirligi	2,8
Mudofa	4	Mudofa vazirligi	35,4
Iqtisodiyotni tartibga solish va rivojlantirish	4	Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari	4,0
Hukumat faoliyatini boshqarish	2	Bosh vazir	0,5
Ekologiya va obodonlashtirish	3	Atrof-muhitni himoya qilish vazirligi	0,6
Davlat moliyaviy majburiyatlari	5	Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari	40,7
O'rta maxsus va xalq ta'limi	6	Xalq ta'limi va qishloq xo'jaligi vazirliklari	59,7
Davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilish	2	Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari	8,8
Adliya	5	Adliya vazirligi	6,0
Ommaviy axborot vositalari, axborot almashish va telekommunikatsiya	2	Bosh vazir	0,3
Ilmiy izlanishlar va oliy ta'lim	13	Xalq ta'limi, Qishloq xo'jaligi, Atrof-muhitni himoya qilish, Madaniyat, Mudofa, Iqtisodiyot, Moliya, Yo'l qurilishi vazirliklari	20,7
Sog'liqni saqlash	3	Sog'liqni saqlash vazirligi	0,4
Mehnat va ish bilan ta'minlash	5	Muxojirlarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi va mehnat vazirligi	13,2
Sport va yoshlar hayoti	3	Yoshlar va sport vazirligi	0,8
Transport	8	Yo'l qurilishi va asbob-uskuna ta'minoti vazirligi	9,4

Buning natijasida davlat siyosatining amaliy jihatdan tarkibiy tuzilishi, ya'ni uning amalga oshirilishidagi har bir qatnashchining bajaradigan vazifasi va faoliyat

⁹Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma . – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2012. –B.71.

turi aniq qilib belgilanadi. Bunday tushunchalarning amaliyotga tadbiq etilishi Moliya vazirligi xodimlarini yangi byudjet tasnifini ishlab chiqishga majbur etdi.

Moliya qonuni tasdiqlangan kunining ertasiga taqsimot dekreti orqali byudjetdan mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan xizmatlar ro'yxati ma'lum qilinadi. Bu dekretida dasturlar bo'yicha taqsimlangan ajratmalar va ularning qaysi vazirga yoki davlat Kotibiga biriktirilgani ko'rsatib o'tiladi. Byudjet ajratmalarining ijrosi va boshqaruvi MMBQ tomonidan kiritilgan va asosan ikki turda guruhlanadigan yangi byudjet tasnifi amalga oshiriladi.

Birinchi turxarajatlarning «yo'nalishi» bo'yicha, ya'ni qaysi siyosiy maqsadga yo'naltirilganligi bo'yicha guruhlanishini bildiradi. Ushbu guruhlanish yuqorida qayd etib o'tilgan missiya, dastur, aktsiya va uning tarkibiy qismlari kabi tushunchalardan tarkib topgan. Umumiy qilib aytganda davlat byudjeti bir qancha dasturlarni o'zida jamlaydigan missiyalarda ifodalanadi. Dasturlar byudjetdan mablag' ajratilishi ko'zda tutgan moliyaviy birliklardir. Byudjet mablag'lari umumjamiyat manfaatlariga qaratilgan aniq bir maqsadni ko'zda tutuvchi va amaliy jihatdan samardorlik ko'rsatkichlari vositasida baholanadigan ma'lum dasturlar uchun ajratiladi. Fransiyada shu yo'l bilan juda yuqori darajadagi oqilona moliyaviy boshqaruvga erishiladi.

Yangi tasniflar bo'yicha ishlab chiqilgan 2016 yil Fransiyadavlat byudjeti 49 ta missiyadan tashkil topgan bo'lib, ularning eng muhimlari jadvalda aks ettirilgan. Shunday qilib, byudjet har bir vazirning ixtiyoriga berilgan, belgilangan byudjet ajratmalari va byudjet to'lovlarini dasturlar bo'yicha batafsil sharhlab beruvchi yuqoridagi jadval ko'rinishida ifodalanadi. Barchavazirlar ixtiyoriga berilgan ajratmalar har biri bitta yoki ber nechta dasturga javobgar hisoblanadigan mas'ul shaxslar, «rahbarlar» zimmasiga yuklatiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir dastur uchun bitta javobgar mas'ul shaxs tayinlanadi. Bosh byudjetda yuqoridagi jadvalni dasturlar bo'yicha yanada aniqroq tavsiflab beruvchi boshqa jadvallar ham o'rin olgan. Masalan, «Davlat tashqi ishlari» missiyasi faqat bitta vazirlikka yuklatilgan bo'lib, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan to'rtta dasturni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturlar uchun belgilangan byudjet ajratmalari

yukoridagi jadvalda keltirib o'tilgan.

3-jadval
«Davlat tashqi ishlari» missiyasi asosiy ajratmalarining tavsifi¹⁰
(million evroda)

Dasturlar nomi	Byudjet ajratmalari miqdori	Ruxsat etilgan byudjet to'lovlari miqdori
Dastur N°5. «Fransiyaning Evropa va butun dunyodagi faoliyati»	1459,0	1417,9
Dastur N°185. «Ilmiy va Madaniy yuksalish»	518,7	517,7
Dastur N°151. «Xorijdagi frantsuzlar va Fransiya-dagi xorijliklar»	281,5	281,5
Dastur N°115. «Tashqi audiovizual»	160,2	160,2
Missiyalar bo'yicha jami	2419,3	2377,2

Xarajatlarning «turi» bo'yicha, ya'ni har bir dasturning ichidagi ajratmalarni iqtisodiy jihatdan ma'lum turkum va turlarga bo'lib guruhlashni nazarda tutadi. Bu tur ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlardan tashqari umumiy xarakterdagi xarajat turkumlari va turlaridan tashkil topgan. «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» xarajatlarni etti guruh va o'n sakkiz turga ajratib guruhlashni ko'zda tutadi.

I guruh – davlat hokimiyati xarajatlari. Bu turkumga kiruvchi xarajatlar hech bir dasturga va samaradorlik ko'rsatkichlariga mos kelmaydi. Bunday xarajatlar toifasiga tabiiy ofatlar va talofatlar uchun ajratmalar, respublika Prezidenti, Milliy Assambleya va Senat, Konstitutsiya Kengashi, Oliy sud, Respublika sudi, Parlamentning faoliyati uchun sarflarni kiritish mumkin.

II guruh – ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, bular quyidagilardan

¹⁰Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma . – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2012. –B.73.

iborat: ish haqi va mehnatni rag'batlantirish; moddiy yordam uchun ajratmalar; boshqa ijtimoiy to'lovlar.

III guruh – joriy xarajatlar. Ushbu xarajat turiga I guruh xarajatlaridan tashqari, tashkilotlar o'z faoliyatini olib borishi uchun zarur bo'lgan joriy xarajatlar uchun ajratmalar va aholiga xizmat ko'rsatish yuzasidan subvensiyalar kiradi.

IV guruh – davlat qarzlar va majburiyatlari ya'ni boshqa moliyaviy majburiyatlar kiradi.

V guruh – investitsiya xarajatlari, quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat moddiy aktivlari uchun xarajatlar; davlat nomoddiy aktivlari uchun xarajatlar.

VI guruh – davlatning aralashuvi xarajatlaridan iborat: uy xo'jaliklariga, transfertlar; xususiy sektor tashkilotlariga transfertlar; hududiy jamoalarga transfertlar; boshqa jamoalarga transfertlar; davlat kafolatlari.

VII guruh – moliyaviy operatsiyalar uchun xarajatlar, ya'ni qarz va avanslar.

Byudjetda mablag'lar byudjet ajratmalari (BA) va byudjet to'lovlari (BT) ko'rinishida ifodalanganligi uchun byudjet ajratmalarining quyiga qarab o'tkazilishi ham byudjet ajratmasi va byudjet to'lovi tartibiga amal qiladi. Xulosa qilib aytganda, byudjet ajratmalari dastur rahbari tomonidan amalga oshiriladigan «Umumiy byudjet ajratmalarini o'tkazish» usuli bilan Dasturning ishchi smetalariga mas'ul shaxslar o'rtasida taqsimlanadi. Ushbu o'tkazmalar smetada ko'rsatilgan umumlashgan ajratmalarni asimmetrik tarzda harakatga keltirish maqsadida quyidagi ikkita portfelga ajratiladi. Birinchisi- ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar (**II guruh**) uchun ajratmalarining umulashgan tarzda bitta portfelga o'tkazilishi bo'lsa, ikkinchisi- qolgan barcha ajratmalar (barcha boshqa guruhlar: joriy, investitsiya) uchun bitta umumlashgan portfelning o'tkazilishini nazarda tutadi. O'z navbatida ishchi smeta rahbari qabul qilib olingan byudjet ajratmalarini «Byudjet ajratmalarini individual o'tkazilishi» usulida turli tezkor birliklar rahbarlari o'rtasida taqsimlaydi. Byudjetda mablag'larni boshqarish rahbar tomonida amalga oshiriladigan beshta bosqichdan iborat.

4-jadval

**«Fransiyaning Evropa va butun dunyodagi faoliyati » deb nomlangan N°5 Dastur uchun ajratmalarning aksiya
va guruhlar bo'yicha ifodalanishi¹¹**

(mln.evroda)

Aksiyalar nomi	II guruh Ish haqi uchun xarajatlar		III guruh Joriy xarajatlar		V guruh Investitsiya xarajatlari		VI guruh Davlataralashuvi xarajatlari		Jami	
	BA*	BT*	BA	BT	BA	BT	BA	BT	BA	BT
Diplomatik faoliyatni muvofiqlashtirish	265,7	265,7	146,0	145,6	1,1	1,1	3,7	3,7	416,4	416,0
Evropaga oid ishlar	12,7	12,7	11,3	11,3			48,2	48,2	721	72,1
Baynalminal lashuvni tartibga solish							259,8	259,8	259,8	259,8
Xalqaro xavfsizlik uchun badallar							226,3	226,3	226,3	226,3
Mudofa va xarbiy hamkorlik	62,5	62,5	0,2	0,2			50,6	49,8	113,3	112,5
Qo'llab-quvvatlash xarajatlari	213,6	213,6	124,4	104,6	32,9	12,9			371,0	331,1
Dastur bo'yicha jami	554,5	554,5	281,9	261,7	34,0	14,0	588,6	587,8	1459,0	1417,9

BA* - Byudjet Ajratmasi

BT* - Byudjet To'lovi

¹¹Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2012. –B.74.

Mablag'ni individuallashtirish dasturning bevosita boshqaruvini ta'minlovchisi tomonidan amalga oshirilib, byudjet ajratmalarini Tezkor birlik rahbariga topshirilishini anglatadi Bu bosqich Dasturning bevosita boshqaruvini ta'minlovchi uchun Tezkor birlik rahbariga o'tkazilgan har bir byudjet ajratmalari portfelining o'lchamlari va turini aniqlab olish imkonini beradi. Bu ayni vaqtda, tezkor birlik rahbariga byudjet ajratmalarini aniq maqsadlar yo'lida sarflash ko'rsatmasining berilgani bilan ham belgilanadi.

«Hozirgi kunda Fransiyada byudjetni rejalashtirish byudjetdan ajratilgan mablag'lar bilan erishilgan natijalarga to'g'ridan-to'g'ri o'zaro bog'liqligiga asoslangan qonuniylikni o'rnatish asosida tashkil qilingan. Byudjet jarayoniga joriy qilingan tartibda faoliyatining natijaviyligiga erishish yo'li bilan byudjet xarajatlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Byudjet jarayonida qonunchilikni o'zgarishi va boshqa holatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda doimiy ravishda ko'rsatkichlarini o'rnini bosadigan xuddi shunday muqobil ko'rsatkichlar ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

Fransiyada yangi byudjet tamoyillarining joriy etilishi prefekturalarning funktsiyalarini aniqlashtirishga olib keldi, ba'zi funktsiyalar xususiy sektorga o'tkazildi. Jamlanma byudjetning andozaviy hisob-kitoblari amalga oshirildi, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning jonboshiga normativ me'yorlari, shuningdek shartnomaviy amaliyot kengayishiga olib keldi. Byudjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan xizmatlar shartnoma orqali xizmat ko'rsatish tizimi kengaydi, davlat organlari yoki mahalliy hukumat va xizmatlarni amalga oshiruvchi (mahsulot etkazib beruvchi) bilan uch yilga shartnoma tuzish zarur qilib qo'yiladi va bunda har yillik tashqi ta'sirlarni hisobga olgan holda ko'rsatkichlarni indeksatsiyalash va ularga tuzatish kiritish ko'zda tutiladi»¹².

Fransiyada prognozlashtirish departamenti beshta direktorat: makroiqtisodiy prognozlar, makroiqtisodiy siyosat, tarmoqlar siyosati, davlat

¹²Pardaev U.U. Davlat byudjetini prognozlashtirish. Monografiya. – T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2017. –B.38.

moliyasi hamda ijtimoiy siyosat va pensiya tizimi direktoratlaridan tashkil topgan. Davlat byudjetini prognozlashtirish va rejalashtirish sohasida islohotlar Fransiyada 2001 yilda moliyaviy qonunchilikda «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» qabul qilinishi bilan boshlandi.

Qonun byudjet tizimining yangicha tamoyillarini va ushbu tamoyillarning amaliyotga joriy qilish rejasini tasdiqladi. Ushbu qonun bilan o'zaro bog'liq holda 2006 yilda Fransiyada barcha xarajatlarni rejalashtirish va bajarish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini yoritib beradigan byudjet dasturlari asosida amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Fransiya byudjet tizimi islohotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat¹³.

1. Byudjet jarayonida aniq natijalarga erishishda javobgarlik o'rnatish yo'li bilan davlat xarajatlari samaradorligi oshirish.

2. Davlat byudjeti xarajatlarini bajarish va nazorat qilish jarayonlarida Parlament rolini oshirish.

3. O'rta muddatli moliyaviy rejalashtirishni amaliyotga joriy qilish.


4. Byudjet jarayonining tiniqligini oshirish.

«Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni»ga binoan natijalarni baholash maqsadida byudjet xarajatlari dasturlarga birlashtiriladi hamda o'zida o'rta va uzoq muddatli istiqbolli rivojlanish maqsadlarini ko'zlaydigan anik missiyalarga mos kelishi zarur. Davlat faoliyati tahlilining asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni maqsad va missiyalarning mos kelishi, davlat organlari faoliyati maqsadlarining yuqori ko'rsatkichlariga erishish, uzoq va o'rta muddatlarda dolzarbligiga mos kelishi bo'yicha natijaviyligini baholashga asoslanadigan yagona yondoshuvni o'rnatilishiga olib keldi.

¹³Pardaev U.U. Davlat byudjetini prognozlashtirish. Monografiya. – T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2017. –B.38.

2.2. Fransiya byudjet sohasidagi g'aznachilik tizimidan foydalanish amaliyoti

Davlat moliyasini boshqarish uni hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag'ni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlarini to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi.




4-rasm. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining modellari¹⁴

¹⁴Kasimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. –S.47.

Davlat byudjetining g'azna ijrosidavlat hokimiyati yoki mahalliy boshqaruv ixtisoslashgan ijroiya organi tarafidan byudjet mablag'larini jalb qilish va sarflanishini ta'minlaydi, bunda, ushbu organ maxsus vakolatlariga ko'ra tushumlar ro'yxati bo'yicha, Yagona g'azna hisobvarag'idanamalga oshiriladigan to'lovlar va zimmasidagi byudjet majburiyatlarining vaqti va hajmini tartibga soladi¹⁵.

Qo'shimcha qiymat solig'ini to'laydigan 2000 ga yaqin soliq to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bankning yagona hisobraqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi tomonidan, 15 foizi Bojxona xizmati tomonidan yig'iladi. Fransiyadagi g'aznachilik tizimi faoliyatining eng muxim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e'tibor beriladi.



5-rasm. Fransiya g'aznachilik tizimida daromadlarni yig'ish¹⁶

Fransiya g'aznachiligida Yagona g'azna hisobvarag'idagi bo'sh mablag'larni bank depozitlariga joylashtirish "Frans Trezor" moliya agentligi zimmasiga

¹⁵Kasimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. –S.23.

¹⁶Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2012. –B.30.

yuklatilgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Fransiyada pul mablag'larini joylashtirishdan keladigan daromadlar davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirishga yo'naltiriladi. Agentlik qimmatli qog'ozlarni joylashtirishdan mablag'lar tushumi bo'yicha operatsiyalarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larining joylashtirilishi va operatsiya kuni yakuniga ko'ra yagona hisobvaraqlarning ijobiy saldosi bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashi zarur.

Fransiyadavlat g'aznasi tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi. U davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarishni nazorat qiladi va ularning hajmi, muddati bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Fransiyada davlat moliya axborot tizimi samarali qo'llanilmoqda. Ushbu tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini e'lon qilish va uning ijrosi amalga oshiriladi. Fransiyada YagonaG'azna hisobvarag'i bo'yicha jamlama ma'lumotni olish bir kun vaqt oladi, batafsil ma'lumot har kun kelib turadi.Bu borada Fransiya davlati g'aznachilik tizimi amaliyotining ilg'or tajribalari tahlil qilish va o'rganish muhim ahamiyatga ega. G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'ini boshqarish masalalarini Fransiya davlati tajribasi asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, byudjetni ijro etish jarayonida Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish eng muhim vazifalardan hisoblanib, davlat majburiyatlarini uzluksiz amalga oshirishda uni roli beqiyosdir.

Agentlik G'aznachilikdan o'tgan operatsiya kunining ma'lumotlari bo'yicha faollashtirilgan kassali rejani, Bankdan esa yagona hisobvaraqdagi qoldiq to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi va qimmatli qog'ozlarni joylashtirish grafigining ma'lumotlarini hisobga olgan holda Agentlik bo'sh turgan pul mablag'larini bank depozitlariga joylashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish Agentlikning har bir bankning eng yuqori ishonchliligiga asoslanadi. Bankning Agentlikdagi reytingiga uning Agentlikka davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda maslahat xizmatlari ko'rsatish ishlarining samaradorligi ham ta'sir ko'rsatadi. Agentlik banklarga mablag'larning muayyan hajmini joylashtirishni taklif qiladi, banklarning buyurtmalarini yig'adi va yakun yasaydi. Ta'kidlash kerakki, Fransiyada barcha qilingan ish natijalari, jumladan umumiy yakunlar,

banklar takliflari, kassa rejasining ma'lumotlari Agentlikda qo'shimcha tekshiruvdan o'tkaziladi. Kassa xarajati uchun buyurtma Agentlik tomonidan G'aznachilikning operatsion bo'linmasiga mablag'larni o'tkazish uchun topshiriladi. Agentlik davlat tasarrufidagi mavjud pul mablag'larini birlashtirish, pul mablag'larining tushumi va sarflanishini nazorat qilish, shuningdek qabul qilingan majburiyatlarning ijrosini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi Yagona g'azna hisobvarag'idagi pul mablag'larni boshqarish texnologik jarayonini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish masalalari Byudjet kodeksining "Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish" nomli 125-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarishni Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradi. Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun Yagona g'azna hisobvarag'ida mablag'lar etishmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti xarajatlarining cheklangan hajmini belgilaydi hamda uning asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar beradi.

Davlat byudjetining ma'lum xarajatlarini tijorat banklardagi depozitlarga vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan qo'shimcha olingan daromad hisobidan qoplash mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda byudjet amaliyotida g'aznachilik texnologiyalarini takomillashtirish va davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish uchun Davlat byudjeti mablag'larini prognozashtirish va kassali rejalashtirishni takomillashtirish bilan birga, Davlat byudjeti mablag'larini likvidligini oshirishga olib keladigan G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idagi operatsiyalarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish zarur¹⁷.

¹⁷Kasimova G.A. G'aznachilik sharoitida Davlat byudjetini samarali boshqarish. \ "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. -Toshkent. 2016. -№3. dekabr.

2.3. Fransiya davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmi

Fransiyada davlat byudjetini nazorat qilishning tashkiliy asoslari juda murakkab bo'lib, uni tartibli bayon etish uchun ikki tushunchani bir-biridan farqlash lozim. Bular audit va nazorat vositalari hamda jazoga tortish mexanizmidir. Audit va nazorat vositalari davlat boshqaruvidagi va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdagi kamchiliklarni aniqlash hamda hududiy jamoalar hisobotlarining to'g'ri va haqqoniyligini baholashga qaratildi. Audit va nazorat vositalarining asosiylari quyidagilardan iborat :

- Konstitutsiya Kengashi tomonidan amalga oshiriladigan yuridik hujjatlar yuzasidan nazorat. Bunda byudjet, soliq siyosati va mahalliy moliyaga oid qonunchilikning Konstitutsiyaga muvofiqligi nazorat qilinadi;
- moliyaviy operatsiyalarning dastlabki nazorati amalga oshiriladi;
- moliyaviy boshqaruvning yakuniy nazorati amalga oshiriladi.

Jazoga tortish mexanizmida boshliqlar, davlat xodimlari va saylangan rahbarlarning moliyaviy sohadagi javobgarlik tartibi tushuniladi. Moliyaviy jarayonlarning dastlabki nazorati ikki xolatda namoyon bo'ladi. Ichki nazoratni kuchaytirish tashkilotning barcha ichki jarayonlari va mexanizmlarini o'z ichiga qamraydi va qanday tarkib bo'lishidan qat'iy nazar uning faoliyatining qonuniy me'yorlarga muvofiqligini yoki tezkor, moliyaviy va strategik maqsadlariga erishishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ichki nazoratni kuchaytirishdan maqsad byudjet ijrosi, moliyaviy faoliyatni nazorat qilish va moliyaviy faoliyatning baholash maqsadida boshqaruv vositalarini amalga tadbiq etishdir. Byudjetni ijro etish jarayonidagi dastlabki nazoratda engillashtirilgan nazorat qo'llanadi. Byudjet ijrosini nazorat qilish o'ziga xos tarzda tashkil etiladi. MMBQga ko'ra moliyaviy nazorat jarayoni moliya qonuni loyihasining tayyorlanishidan boshlanib bir qancha bosqichlardan o'tuvchi ikki darajadagi nazoratni o'z ichiga oladi.

Markaziy moliyaviy nazorat har bir asosiy rahbar hisoblanuvchi vazirning

ish faoliyati yuzasidan Moliya vazirligiga bo'ysunuvchi byudjet nazoratchisi va shu vazirlik uchun tayinlangan hisobchi tomonidan amalga oshiriladi. Bu tamoyil «Byudjet nazorati va vazirlik hisobi» (BNVH) deb nomlanadi. BNVH har bir vazirlik qoshida tashkil etilib, unga asosiy rahbar (vazir) tomonidan sarflangan byudjet xarajatlari yuzasidan markaziy moliyaviy nazoratni amalga oshirish va davlat yordamchi hisobchisi vazifasini bajarish vakolati yuklatiladi. Shunday qilib BNVH ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lib, bo'lim boshliqlari byudjet nazoratchisi va vazirlik hisobchisi nomidan ish yuritadi. Byudjet nazorat bo'limi bosh moliyaviy va iqtisodiy nazorat korpusi a'zosi tomonidan boshqariladi va moliyaviy nazoratni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bu nazoratni amalga oshirish tartibi ikki tushuncha vositasida tushuntiriladi.

Byudjet nazorati ko'lami uch darajali nazoratni o'zida mujassamlaydi:

Nazoratchi dastavval byudjet dasturlarini amaliy kuchga kirmasdan oldin ko'rib chiqadi, ya'ni xarajat va daromadlar prognozining qanchalik haqqoniyligi va to'g'ri baholanganligini tekshiradi, kutilishi mumkin bo'lgan risklarni va shuningdek davlat xarajatlarini mukammal darajada boshqarishga qay darajada ta'sir etishini tahlil etadi. Xarajatlar prognozining haqqoniyligi asosan kelgusida topshirilishi mumkin bo'lgan mablag'ning rahbar tomonidan sarflanish loyihasida byudjet ajratmalarini byudjet to'lovlariga qanchalik mosligini tekshirish orqali aniqlanadi. Bu bilan qayd etiladigan majburiyatlarning to'lanish imkoniyati o'lchanadi. Ushbu darajaning o'zi ham ikki qismga ajratiladi.

Dasturlar bo'yicha, har bir vazirlik moliyaviy nazorat yuklatilgan rahbariyat tomonidan oldindan ruxsat etilishi lozim bo'lgan va faqat shu vazirlikka tegishli barcha dasturlarni qamrab oluvchi «Byudjetga oid bosh dasturlashtirish hujjati»ni ishlab chiqadi. Bu nazorat vazirlikdagi ish o'rinlarining dasturlar bo'yicha taqsimlanish loyihasi, har bir dasturga birlashtirilgan ishchi smetalar bo'yicha ishchi-xodimlar va mablag'larning taqsimlanish loyihasi, har bir dastur uchun zarur ish o'rinlari va mavjud mehnat resurslarining mutanosibligi hamda yil mobaynida yuz berishi mumkin bo'lgan ba'zi byudjet o'zgarishlarini amalga oshirilishini

ta'minlashga qaratilgan zahira mablag'larini tashkil etilishiga qaratiladi. Ishchi smetaning tarkibiy qismi hisoblanadigan «boshqaruvga oid prognoz hujjatlari» ham moliyaviy nazoratchi tomonidan oldindan tekshirib chiqilgan bo'lishi kerak. Nazorat xususan ishchi smetaning barcha elementlari (xarajatlarning samaradorlik jihati bilan birga loyihalashtirilishi, ish o'rinlari va mablag'lar bo'yicha smeta, moliyaviy ijroni tashkil etilish sxemasi) o'rtasidagi mukammal mutanosiblikni va shuningdek majburiy xarajatlarning qoplanishini nazorat qilishga qaratiladi. Shu bilan birga mablag'larning yil yakuniga qadar uzluksiz ravishda taqsimlanishini va qo'shimcha mablag' uchun so'rovlarni tekshiradi. Nihoyat, u byudjet xarajatlari ijrosining ma'lum bir qismini (majburiyatlar bajarilishini) engillashtirilgan tarzda nazorat qiladi.

Fransiyada byudjet nazorati shakllari turlichadir.

1. Xarajat summasining miqdor bo'yicha guruhlanishiga asoslangan va tanlov asosida amalga oshiriladigan nazorat. Bu nazorat shakli jiddiy xarajatlarni talab etadigan ishlarga nisbatan qo'llanadi hamda visa va xulosa ko'rinishiga ega bo'ladi. Visa¹⁸ quyidagi katta ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarga nisbatan qo'llanadi: vazirlik miqyosida byudjetga oid dastlabki dasturlashtirishda, investitsiya operatsiyalarining joylashtirilishida, o'ta muhim xarajatlarni keltirib chiqaruvchi majburiyatlarning bajarilishida. Xulosa quyidagi ishlar yuzasidan qo'llanadi: ishchi smetalar boshqaruviga oid prognoz hujjatlari uchun, mablag'larning asimmetrik harakati yuzasidan so'rovlar uchun, muhimligi jihatidan o'rtacha hisoblanadigan majburiyatlarning bajarilishi va investitsiya operatsiyalari uchun.

2. O'zgaruvchan va qaytariluvchi nazorat. Bu nazorat moliyaviy nazoratchining visa va xulosasigagina ko'ra amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarning batafsil tarzda aniqlab berilishini bildiradi. Bu har bir nazoratchi

¹⁸ Visa – Amerika trans milliy kompaniyasi tomonidan to'lov operatsiyalarini amalga oshirish uchun xizmatlar. <https://www.visa.com.ru/>

tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning qay darajada o'zgartirilishi mumkinligini belgilaydigan ma'lum mablag' miqdorini o'rnatuvchi hamda nazoratchining visa yoki xulosasidan ozod etilgan ishlarning yakuniy nazorati yuzasidan shartlarni ham aniqlab beruvchi hujjatdir.

3. Byudjet xarajatlari buxgalteriyasini yuritish (byudjet ajratmalari harakati va majburiyatlarning bajarilishi) ham moliyaviy nazorat bo'limiga yuklatilgan.

5-jadval

Ayrim mamlakatlarning 2017 yilgi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari¹⁹

mln. dollarda

TR	Mamlakatlar	Davlat byudjeti daromadlari	Davlat byudjeti xarajatlari	Defitsit \ profitsit
1	AQSh	3 336 000	3 991 000	-655 000
2	Yaponiya	1 678 000	1 902 000	-224 000
3	Germaniya	1 598 000	1 573 000	+25 000
4	Fransiya	1 334 000	1 412 000	-78 000
5	Buyuk Britaniya	984 400	1 076 000	-91 600
6	Italiya	884 400	927 700	-43 300
7	Braziliya	726 600	749 000	-22 400
8	Kanada	623 700	657 300	-33 600
9	Ispaniya	492 400	535 900	-43 500
10	Avstraliya	461 000	484 900	-23 900
11	Niderlandiya	344 800	340 200	+4 600
12	Koreya Respublikasi	351 600	338 000	+13 600
13	Meksika	292 800	314 900	-22 100
14	Shvetsiya	274 800	269 900	+4 900
15	Rossiya Federatsiyasi	253 900	287 500	-33 600
16	Belgiya	248 700	260 000	-10 300
17	Xindiston	248 700	330 300	-81 600
18	Shveytsariya	223 500	222 100	+1 400
19	Norvegiya	214 300	198 000	+16 300
20	Avstriya	197 800	201 900	-4 100

Auditorlarning 2017 yil iyun holatiga baho berishlaricha, Fransiyaning 2017

¹⁹ Государственный бюджет по странам. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>

yilgi davlat byudjeti oxirgi o'n yillikda birinchi marta Evropa Ittifoqi talablariga mos keldi. Davlat byudjeti defitsiti 2017 yilda YaIM ga nisbatan 2,6 foizni tashkil etdi, o'tgan yili bu ko'rsatkich 3,4 foizni tashkil etgan. Fransiya davlati moliyaviy-iqtisodiy inkirozdan keyin davlat moliyasi tizimida qattiq qarorlar qabul qilinganligidan shunday ijobiy natijalarga erishmoqda.

Fransiyada Moliyaviy boshqaruvning yakuniy nazorati quyidagi to'rtta yo'nalishda tashkil etilgan:

1. Tashqi nazorat. Moliyaviy masalalar bo'yicha sud organlari tomonidan amalga oshiriladi.
2. Ichki nazorat. Inspektsiya korpusi tomonidan amalga oshiriladi.
3. Moliya rahbariyati tomonidan nazorat.
4. Parlament nazorati.

Tashqi nazoratda moliyaviy masalalar bo'yicha sud organlari davlat boshqaruv tizimining juda muhim bo'g'ini hisoblanib, uch elementdan tashkil topadi: Byudjet va moliyaviy axloq sudi, Hisob palatasi hamda Hisob palatasining hududiy (region) bo'limlari. Byudjet va moliyaviy axloq sudining bosh vazifasi nafaqat rahbarlarni balki byudjet ijrosi jarayonida qatnashuvchi har bir ishtirokchini yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari uchun javobgarlikka tortish va jazolashdir.

Hisob palatasi asosan to'rtta vakolatga ega:

- davlat, hududiy jamoalar va ijtimoiy sug'urta tashkilotlari moliyaviy boshqaruvining yakuniy nazorati;
- huquqiy nazorat, ya'ni davlat hisobchilari va boshqa davlat tashkilotlari hisobotlarini qabul qilish va ular ustidan yakuniy xulosa chiqarish;
- Hukumat va Parlamentga moliya qonunining ijrosini va ijtimoiy sug'urta tashkilotlari moliyasini nazorat qilishda ko'mak berish;
- davlat hisob-kitoblari va ijtimoiy sug'urtaning umumiy tartibini tasdiqlash.

Hisob palatasi Prezidenti tomonidan «Nazoratlar dasturi» erkin va mustaqil ravishda tasdiqlanadi. Nazorat to'g'ridan-to'g'ri tashkilotlarda moliyaviy

operatsiyalarni asoslovchi hujjatlar asosida (tashkilotlar hisobchisi tomonidan hisoblar palatasiga oldindan muttasil ravishda etkazib berilgan hujjatlar asosida) amalga oshiriladi. Bu jarayon nazorat yuzasidan Hisob palatasining tegishli bo'limiga topshirilishi bilan yakun topadi. Kuzatish natijalari tegishli vazirga va Parlament qoshidagi moliyaviy komissiyaga bosh prokuror tomonidan ma'lum qilinadi hamda davlat byudjet boshqaruvi natijalariga oid yillik hisobotda chop etiladi.

Region hisob palatasi hududiy jamoalarning byudjet nazoratini amalga oshiradi. Ushbu nazorat jarayoni Hisob palatasiga juda o'xshash tartibda amalga oshiriladi. Ko'pchilik vazirlar vazirlik boshqaruvi, aniqroq qilib aytganda moliyaviy boshqaruvini nazorat qilib turuvchi Inspeksiya korpusiga ega. Inspeksiya korpuslari mustaqil ish yuritmaydi balki, o'zlari bo'ysunadigan vazir so'rovi asosida va uning rahbarligi ostida nazoratni amalga oshiradilar hamda unga hisob beradilar. Armiya bosh nazorati, Ijtimoiy ishlar bosh Inspeksiyasi, Ma'muriyat bosh Inspeksiyasi faoliyati alohida ahamiyatga ega. Davlat moliyasining asosiy nazorat organi bu - moliya bosh Inspeksiyasi bo'lib, bevosita Moliya vaziriga bo'ysunuvchi davlatning eng katta korpuslaridan biri hisoblanadi va bo'lim boshlig'i hisoblanadigan Bosh inspektor tomonidan boshqariladi. Bu inspeksiya davlat hisobchilari tomonidan yuritilgan buxgalteriya hisobini va hisobotini tekshirib turadi. Shuningdek, moliya vazirligiga bo'ysunmaydigan barcha boshqa bo'limlar xodimlari, xususan, qo'shimcha byudjet rahbarlari, g'aznachilik maxsus hisobraqamlari bo'yicha javobgar shaxslar va boshqa vazirlarning yordamchilari uning doimiy kuzatuvda bo'ladi. Moliya bosh Inspeksiyasi Moliya vaziri tomonidan so'ralgan tashkilotni, davlat siyosati yoki byudjet jarayonlarini audit qilish va baholashni amalga oshiradi. Parlamentga davlat byudjeti ijrosini nazorat qilib turish uchun ikkita xuquq berilgan.

Birinchidan, doimiy ravishda axborotlarni olib turish xuquqi, ikkinchidan, To'g'rilovchi moliya qonuniga ovoz berib tasdiqlash orqali uning ustidan yakuniy hukmni o'qish xuquqlaridir. Axborotlarni olib turish xuquqi doimiy ravishda

xabardor bo'lib turishni bildiradi. Ya'ni Parlament axborotlarga ega bo'lish va ular yuzasidan tekshirish o'tkazish xuquqiga ega. Uning ushbu vazifasi asosan Parlament qoshidagi moliya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu komissiya «Moliyaviy Me'yorlar Bosh Qonuni» ijrosini uzluksiz ravishda kuzatib turish bilan birga davlat moliyasiga oid barcha muammolarni to'g'ri baholanishini yo'lga qo'yadi.

To'g'rilovchi qonunning bosh vazifasi yil mobaynida amalga oshirilgan barcha moliyaviy operatsiyalarni qayd etishdir. Bu o'rinda palatalar alohida huquqga ega bo'lib, ijrochi rahbar tomonidan amalga oshirilgan ba'zi operatsiyalarni, xususan «ilojsiz hollar» natijasida kelib chiqadigan va batafsil asoslab berilgan qo'shimcha mablag' sarfi yuzasidan to'g'rilashni amalga oshiradilar va tasdiqlaydilar. Parlament tomonidan To'g'rilovchi qonun qabul qilingach, ijrochi rahbarlar ustidan Parlament o'z nazoratini mustahkamlaydi. Milliy assambleya huzuridagi moliyaviy komissiya qoshida «Nazorat va baholash missiyasi» tashkil etilgan bo'lib, uning a'zolari deputatlardan iborat. Deputatlar har yili oldindan belgilangan mavzular yuzasidan ish olib boradilar, bir qancha tashqi tekshirishni amalga oshiradilar.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Fransiyada g'aznachilik tizimi tomonidan Markaziy Hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining harajatlariga mablag' o'tkaziladi. Fransiya Hukumati quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha davlat xarajatlarini amalga oshiradi.

1. Hokimiyat boshqaruvidagi nomarkazlashtirish (detsentralizatsiya).
2. Fransiya davlat g'aznasi tomonidan g'aznachilik operatsiyalarni o'tkazish vaqtini qisqartirish.
3. Byudjetni ijro qilish va hisobot ma'lumotlarini tayyorlash.
4. Konsalting.

G'aznachilikda riskli operatsiyalarni, masalan, xarajatlarning ayrim yo'nalishlari: davlat xaridlari, dotatsiyalar, subventsiyalar kabi katta miqdordagi

xarajatlarni tanlab nazorat qilinishiga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda barcha to'lovlar faqat mahsulotlar qabul qilingandan keyin amalga oshiriladi. Byudjet ijrosi bo'yicha ish vaqti aniq belgilandi. Mahalliy hokimiyat organlari xarajat operatsiyalarini o'tkazish to'la davri hisob varaqasidagi mablag'larni qabul qilingan paytdan kassali xarajat qilish paytgacha bo'lgan davr kiskartirildi. O'tgan yillar mobaynida Fransiya davlat g'aznasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali boshqarishga alohida e'tibor bermoqda. Fransiyada 1998 yildan g'aznachilik tizimi tomonidan talab darajasidagi kasb xodimlarini tayyorlashga yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlashni modernizatsiyalash amalga oshirildi. Xodimlar guruhlarga qarab taqsimlandi. A guruhi: rahbarlik funktsiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan darajali (litsenziyaga ega) davlat xizmatchilari. B guruhi: o'rta maxsus ma'lumotga ega, o'rta rahbarlik funktsiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan davlat xizmatchilari. S guruhi: maxsus kasb ma'lumoti to'g'risida diplomga ega davlat xizmatchilari.

3-BOB. BYUDJET SOHASIDAGI FRANSIYA TAJRIBALARI ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BYUDJETINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Byudjet jarayonida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo'llari

Rivojlangan va iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ularning aksariyat qismida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish Strategiyalari qabul qilingan. Evropada har bir davlatda Strategiyaning uzoq maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan. Uning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boriladi va Hukumat hisoboti tinglanadi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritiladi. Malayziyada maxsus Iqtisodiy Rejalashtirish Qo'mitasi tuzilgan va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqadi va bajarilishi ustidan doimiy moliyaviy nazorat olib boradi. Fransiya, Yaponiya, Koreya va boshqa ko'plab davlatlarda rivojlanish Strategiyasi doirasida o'rta va uzoqmuddatli rivojlantirish dasturlari qabul qilinadi va bajarilishi doimiy monitoring qilinadi.

Xorijiy davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, Parlament nazoratini samarali amalga oshirishga ko'mak beradigan institutlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Birinchidan, bu masalada mamlakatda axborot-tahlil institutlarining roli katta. Parlament huzurida axborot-tahlil institutlari bo'lishi rivojlangan demokratik davlatlarda keng qo'llaniladi. Ushbu institutlar senatorlar va deputatlarni zarur axborot, tahlil va ekspert xulosalari bilan ta'minlaydi. AQShning Kongress tadqiqot xizmatida 5 ta boshqarma va 7 ta bo'limda 860 ta xodim ishlaydi. Germaniya Bundestagi maxsus ilmiy xizmati 12 ta bo'limdan iborat bo'lib, ularda 70 dan ortiq ilmiy xodim faoliyat yuritadi. Shuningdek Kanada (Analitik tadqiqotlar boshqarmasi), Avstriya (Parlament tadqiqot xizmati), Fransiya, Ispaniya (maxsus ilmiy-tadqiqot bo'limlari) va boshqa davlatlar Parlamentlarida

maxsus axborot-tahlil markazlari Parlament nazoratiga ko'mak berishadi²⁰. Evroparlamentda ham maxsus Parlament tadqiqotlari markazi mavjud. Tadqiqot markazlari quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- umumbashariy va siyosiy muammolar tahlili;
- statistik va iqtisodiy tahlil;
- mamlakat siyosiy kuchlar, hukumatning kuchli va zaif tomonlarini baholash;
- mavjud muammolarni tushuntirish, Parlamentda professional nuqtai-nazarni shakllantirish;
- amaldagi me'riy-huquqiy bazaning qiyosiy tahlil qilish;
- byudjet loyihasini va uning ijrosini ilmiy-amaliy tahlil qilish.

Parlament nazoratini amalga oshirishda statistik ma'lumotlar ishonchliligini va xolisligini ta'minlash muhimdir.. Parlament tomonidan iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturlari bajarilishi, shuningdek davlat byudjeti xarajatlarining sarflanishi ustidan samarali nazorat olib borilishi uchun Parlamentga taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlarning xolisligini va ishonchliligini ta'minlash juda muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2014 yil 29 yanvarda qabul qilingan «Rasmiy statistikaning asosiy 10 ta printsiplari» nomli hujjatdagi birinchi printsiplardan statistik ma'lumotlarning xolisligi printsiplidir. Evropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan «Evropa statistika me'yoriy kodeksi»dagi 15 ta printsiplardan birinchisi statistika organining mustaqilligi printsiplari hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan demokratik davlatlarda statistika organining mustaqilligi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. AQSh, Fransiya, Avstriya, Norvegiya kabi davlatlarda statistika organlari mustaqil, ya'ni faqat qonunlar asosida ish ko'radi va davlat organlariga bevosita bo'ysunmaydi. Buyuk Britaniyada esa statistika organi Parlamentga bo'ysunadi, Litva va Irlandiya davlatlarida Prezidentga hisob beradi. Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda

²⁰G'aybullayev O., Yroqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press". 2015. –B.116.

joriy qonunchilik va amaliyotni rivojlantirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak²¹.

1. Davlat byudjeti loyihasini kamida ikkita yoki uchta tasnifda tayyorlash lozim. Bunda byudjet parametrlari soni kamida 300-400 ta bo'lishi, byudjet loyihasi esa davlatning barcha jamg'armalarini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti taklif qilganidek, kelajakda parametrlar sonini 1000 taga etkazish mumkin. Oliy Majlisga byudjet loyihasi bilan birgalikda iqtisodiyotning kelgusi uch yilga mo'ljallangan prognozi va byudjet parametrlarining unga mos kelishi asoslari hamda byudjet rivojlanishining kelgusi uch yilga mo'ljallangan parametrlari prognozini ham kiritish taklif etiladi.

2. Davlat byudjeti loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritilgandan keyin loyihani ko'rib chiqish muddatini 1 oydan 3 oygacha uzaytirish taklif etiladi. Shuning bilan birga, Qonunchilik palatasida muhokama qilish tartibi yoki metodologiyasini tasdiqlash lozim. Byudjet loyihasini 3 ta o'qishda ko'rib chiqish va qonun sifatida qabul qilish taklif qilinadi. Xuddi rivojlangan demokratik davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham byudjet loyihasini Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis palatalari veb-sahifalarida joylashtirish va keng jamoatchilik e'tiboriga havola etish lozim.

3. Davlat byudjeti ijrosining Oliy Majlisga kiritiladigan tarkibini tasdiqlab qo'yish lozim. Davlat byudjeti ijrosi Oliy Majlis tomonidan qoniqarsiz deb topilganda (jumladan, byudjet ijrosi samaradorligi indikatorlarini ishlab chiqish asosida) qabul qilinadigan qaror mexanizmini ham ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.

4. Hisob palatasi va Oliy Majlis palatalari o'rtasidagi axborot almashinuvi tartibini tasdiqlash ham talab etiladi.

5. Oliy Majlis huzurida senatorlar va deputatlarni zarur axborot, tahlil va

²¹G'aybullayev O., Yroqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press". 2015. –B.117.

ekspert xulosalari bilan ta'minlashga xizmat qiladigan axborot-tahlil institutini tashkil etish lozim.

6. Oliy Majlis tomonidan iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturlari bajarilishi, shuningdek davlat byudjeti xarajatlarining sarflanishi ustidan samarali nazorat olib borilishi uchun Oliy Majlisga taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlarning xolisligini va ishonchliligini ta'minlash maqsadida Davlat statistika qo'mitasini mustaqilligini ta'minlash va bevosita Oliy Majlisga hisobot berishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublikamizda ta'lim va tibbiyot muassasalarida byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 3231-son Qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida 2017 yil 1 sentyabrdan boshlab:

- bir vaqtda o'zlarining buysunuvidagi quyi muassasalarda buxgalteriya xizmatlari tugatildi, xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limlarida va tibbiyot birlashmalarida markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasida 3 shtat birligidan iborat ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasida, viloyatlar xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalarida hamda Toshkent shahar Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash bosh boshqarmalari va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasida 4 shtat birligidan iborat ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkil etildi.

Ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

a) markazlashtirilgan moliya - buxgalteriya xizmatlarining – markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, ish haqining hisoblanishi va to'lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash, ularning faoliyati profili bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushadigan daromadlar monitoringini yuritish;

b) respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining- byudjet mablag'larining noqonuniy sarflanishi va talon-toroj qilinishi holatlarining profilaktikasini ta'minlash va ularning oldini olish:

v) buysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashtirish va uning ijrosi, byudjet hisobining yuritilishi, tender (tanlov) savdolarining o'tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;

g) buysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga byudjet hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan foydalanish, jumladan, tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

d) qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida quyi muassasalarga

bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.

Respublika darajasidagi ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining rahbarlari ijtimoiy-maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish shart-sharoitlari bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar boshqarma boshliqlariga, hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining rahbarlari esa bo'lim boshliqlariga tenglashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi etib qayta tashkil qilindi va uning qo'shimcha vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo'yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

- byudjet qonunchiligiga rioya etish bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

- byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-toraj qilish, kamomadlarga yo'l qo'yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- masofaviy nazoratni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish ob'ektlari va maqsadlarini aniqlash yo'li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha Idoralararo kengashning asosiy vazifalari belgilandi. Jumladan, davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishning tizimli va xarakterli moliyaviy huquqbuzarliklarning profilaktikasi va ularning oldini olishni nazarda tutadigan

istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi. Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit faoliyatini tashkillashtirish va amalga oshirishning xalqaro tan olingan uslublari va vositalarini joriy qiladi. Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida Fransiya tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida asosiy e'tiborni byudjet tizimini boshqarishni rivojlantirish, samarali byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga qaratish kabi muhim vazifalar belgilangan. Shuning uchun byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish strategiyasi va byudjet tizimini boshqarishning xalqaro tajribalariga tayangan holda, byudjetlararo munosabatlarni boshqarish takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining byudjeti tizimi uch guruhdan iborat omillar ta'sirida faoliyat ko'rsatmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida byudjet tuzilishi, hokimiyat tuzilmasi va mexanizmlarni davlat tomonidan isloh qilish, respublika va mahalliy byudjetlar vakolatlarining belgilab qo'yilishi;
- byudjet tizimida byudjet ko'rsatkichlarining o'zaro iqtisodiy ta'siri;
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi hamda byudjetga oid yangi qonunlar bilan bog'liq bo'lgan byudjet islohotlari.

Fransiyada bugungi kunda byudjet jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan harakatlarni bir so'z bilan «davlat moliya tizimini islohotlashtirish» deyish mumkin. Fransiya hukumati byudjet operatsiyalari boshqaruvining dasturlashtirilishi, uzoq yillar mobaynida amalda bo'lib kelgan boshqaruv usullarini zamon talablariga mos yangi qoidalar bilan almashtirilishiga katta e'tibor

qaratmoqda. Fransiyada bir necha yillardan buyon davlat moliyacini boshqarishda yangi hisoblar tizimi amalga tatbiq etilib, xususiy sektordagi kabi davlat moliyasini boshqarish yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa, nafaqat davlatning moliyaviy xolatini balki, ma'lum moliya yili mobaynida davlat byudjetining xolatini aniq, tushunarli tarzda ifodalab berilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga ushbu ma'lumotlar davlat rahbariyatining yangi qarorlar qabul qilishida ham muhim rol o'ynaydi.

Davlat byudjeti to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmasligi davlat uchun zarur bo'lgan daromadlarning o'z vaqtida tushmasligiga va buning natijasida davlat xarajatlarini moliyalashtirishda jiddiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Byudjetga to'lovlarning to'lov intizomini mustahkamlash yo'li bilan mablag'larni o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash masalasini hal qilish kerak. Byudjet tizimi daromadlarini taqsimlashning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarini alohida byudjetlar o'rtasida shunday qayta taqsimlashdan iboratki, ulardan har biri o'ziga ajratilgan barcha xarajatlarni qoplaydigan mablag'lar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimining mazmuni va uni tashkil etishning huquqiy asoslari yaratildi. Mahalliy byudjetlarni balanslashtirish maqsadida soliqlar va boshqa ko'rinishidagi daromad manbalarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tamoyillarga asosan taqsimlash amalga oshiriladi:

- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishi yagona tamoyillar va yondoshuvlar asosida barqaror ravishda bo'lishi e'tiborga olinadi;
- har bir darajadagi byudjet bo'g'inining o'z daromadlari ularga biriktirib qo'yilgan xarajatlar vakolatlarini bajarish uchun asosiy resurslar manbai hisoblanadi;
- soliq vakolatlari va daromad manbalari taqsimlanishi byudjet bo'g'inlari o'rtasida balanslashtirish tamoyillariga asoslanadi;
- tartibga soluvchi soliqlardan tushadigan tushumlarning bir qismi mahalliy byudjetlar o'rtasida shakllangan usullar asosida) taqsimlanadi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqarorligi mamlakatimizda

hududlarning quyi bo'g'inlarida, ya'ni viloyatlar, tumanlar, shaharlar doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishda bir qancha yutuqlarga erishilganiga qaramay, lekin ushbu masala yuzasidan hududlarda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek, «Soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi»²².

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi hamda Harakatlar strategiyasi, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturida byudjet daromadlari va xarajatlarining xalq uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash, shuningdek, davlat moliyasini boshqarishda o'rta muddatli modelga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi .

Mamlakatimizda amaldagi tartibga muvofiq, davlat byudjeti indeksatsiyalarni qo'llash metodi bilan bir yillik asosda tuziladi. Chunki byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet tashkilotlari o'zlarining istiqbollarini rejalashtirilgan yildan uzoqroq davrga prognozlashtira olmaydi. Buning asosiy sababi esa kelajakdagi makroiqtisodiy o'zgarishlarni va ularning fiskal


²²Mirziyoyev Sh.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.\ Xalq so'zi. 2016 yil.

ko'rsatkichlarga ta'sirini oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligidir. O'rta muddatga byudjetni rejalashtirish – davlat byudjetini bir necha yilga (qoida tariqasida 3-5 yilga) tuzish jarayonidir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarida ushbu tizim shakllantirilgan. Mamlakatimizda ham ushbu tizimni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda va dastlabki shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, valyuta kursi liberallashtirildi va natijada o'zbek so'mining kursi barqarorlashdi. Ma'muriy islohotlar kontsepsiyasi strategik rejalashtirish tizimini yaratishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra, «qisqa muddatli», «o'rta muddatli», «uzoq muddatli» kabi tushunchalar kiritilmoqda. 2018 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish va shakllantirishning yangi tartibi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rta muddatli byudjet tuzish kontsepsiyasi yaratildi hamda tajriba sifatida Namangan shahrining (2018-2020 yillar uchun) o'rta muddatga byudjet loyihasini tuzishda foydalaniladi. O'rta muddatli byudjet tuzish kontsepsiyasiga ko'ra, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni “yuqoridan-pastga” va “pastdan-yuqoriga” yondoshuvlari asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, “yuqoridan-pastga” yondoshuvida makroiqtisodiy prognoz modellari asosida 3-4 yillik byudjetning yuqori chegaralari aniqlanadi, “pastdan-yuqoriga” yondoshuvida esa vazirlik va idoralarning byudjet so'rovi ko'rinishida byudjet mablag'lariga 3-4 yillik talabi aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida o'rta muddatli byudjet tuzish kontsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti taraqqiyot dasturi va Buyuk Britaniyaning mamlakatimizdagi elchixonasi texnik ko'magida ishlab chiqildi. O'rta muddatli byudjetlashtirish jarayonini to'liq yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xalqaro tajribalardan ma'lum, davlat moliyasini boshqarishda o'rta muddatli modelga bosqichma-bosqich o'tish davlat byudjeti mablag'lari sektori samaradorligini oshiradi va byudjetning ochiqligini ta'minlaydi.

Byudjet xarajatlarini rejalashtirishda, byudjet loyihasini ishlab chiqishda turli uslublardan foydalaniladi. Byudjet jarayoni islohotlarini amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri- «natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish -

NYB» joriy etishdir.



6-rasm. Ijtimoiy xizmatlar sohasini moliyalashtirish uslublari²³

Byudjet mablag'larini ishlatilishining samaradorligini oshirish, davlat xarajatlarini boshqarishni optimallashtirish maqsadida, davlat byudjetini rejalashtirishda jahon amaliyotida byudjetni rejalashtirishning yangi uslubidan foydalaniladi. Bu uslubning nomi «natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» deb ataladi. Amaliyotchilar byudjet xarajatlarini optimallashtirishda «natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» uslubini amalda qo'llash va rivojlantirish eng maqbul yo'llaridan biri deb hisoblashmoqda.

Davlat moliyasi va davlat byudjetiga oid iqtisodiy adabiyotlarda "byudjetlashtirish" (*budgeting*) tushunchasi byudjet loyihasini tayyorlash va uni ijro qilishning kompleks bosqichlari yig'indisi sifatida ishlatiladi. Byudjetning turli xarajatlari o'z navbatida eng yuqori samarali usul bilan erishiladigan yakuniy natijalarga yo'naltiriladi va g'aznachilikda mamlakatdagi byudjet ijrosining natijalari baholanadi. Byudjetni «maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi» yoki

²³Ahmadjonov Sh.A., Allaqulov A.A. O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi.//Moliya.– Toshkent. 2015. №3. –B.7.

dasturlar bo'yicha byudjetni rejalashtirishdir (rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish tizimi – planning programming and budgeting system – PPBS)²⁴. «Maqsadli-dasturli rejalashtirish» uslubining maqsadi – davlat moliyasi sohasida byudjet protseduralarining samaradorligini oshirish uchun resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlarni qabul qilishni takomillashtirishdir. Fransiyada ham byudjet ishlab chiqish jarayonida yanada samarali uslublardan foydalanish maqsadida yangi «maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi» («programno-tselevoy metod») yoki «natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» uslubi qo'llaniladi.

Ko'pgina davlatlarda byudjet islohotining muhim yo'nalishlaridan biri - natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etishdir. «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» - moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo'lishi va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» deganda, cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishilishiga qarab hamda davlat byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq taqsimlanadi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishdan foydalangani-mizda xarajatlarning alohida moddalari bo'yicha byudjet g'azna ijrosida maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarishga o'tiladi. Dasturiy-maqsadli uslubda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, byudjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa – maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Dasturiy-maqsadli tamoyillar asosida tuzilgan byudjetning muhim xususiyati shundaki, yakuniy natijalar, rejalashtirilgan tadbirlardan samara va ularning monitoringi byudjetning o'zida belgilanadi. Bunda byudjet faqatgina xarajatlar tasnifining an'anaviy turlari yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo'yicha alohida ishlab chiqiladi.


Davlat xizmatini ko'rsatish bo'yicha funktsiyalarni bajarish qator

²⁴Public spending structure, minimal state and economic growth in France (1870–2010).Public spending structure, minimal state and economic growth in France (1870–2010). R.27.

parametrlar bilan aniqlashtiriladi:

- davlat xizmati ko'rsatuvchi sub'ektlar bilan (ijroiya xokimiyat organlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlariga bo'ysinadigan muassasalar va boshqa byudjet tashkilotlari);
- davlat xizmati ko'rsatish ob'ektlari bilan (fuqarolar va tashkilotlar);
- xizmatga haq to'lashga yondoshuv bilan (bepul yoki davlat hokimiyati tartibga solib turadigan baholar bo'yicha);
- xizmat ko'rsatish sohasi imkoniyatlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, atrof muxitni muhofazalash).

Bu holatlarining barchasi natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish texnologiyasini ko'zda tutadi. Fransiyada byudjetlashtirishning xorijiy usulini o'rganish shuni ko'rsatadiki, asosiy byudjetni ishlab chiqish uchun ko'plab «qo'llab-quvvatlovchi» deb nomlanuvchi byudjetlarni tuziladi.



7-rasm. Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish elementlari²⁵.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirishni amalga joriy etish ayni vaqtda byudjetni kelajakka rejalashtirishga o'tishni ham nazarda tutadi. Lekin,

²⁵Azizova I. A. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: info COM. UZ nashriyoti. 2010. –B.46.

byudjetni rejalashtirish va ijro etishning xarajatlar usulidan natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga samarali o'tish uchun ancha uzoq vaqt ajratish talab etiladi. Shuni hisobga olish lozimki, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda bu yondashuvni joriy etishga bir necha o'n yil vaqt ketgan. Masalan, Fransiyada bu yo'lda ilk qadamlar yarim asr oldin tashlangan va hozirgi vaqtda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish davom etmoqda²⁶. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, bevosita byudjetda baholash mezonlarining mohiyati ko'rsatiladi. Ular shu dastur doirasida moliyalashtirilayotgan ob'ekt yoki xizmatning holatini va dastur yakunlanganda erishilishi rejalashtirilayotgan holatni aks ettiradi. Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish uslubi quyidagi vazifalarni echishga imkon beradi:

- aholi talablariga mos xizmatlarni taqdim etish;
- xarajatlarning nafaqat qiymatini, balki ijtimoiy samaradorligini aniqlash;
- byudjet xarajatlarning asosiligi va tiniqligini oshirish;
- byudjet tasnifi bo'yicha resurslarni xarajat turlari bo'yicha emas, strategik maqsadlar bo'yicha taqsimlash.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda mamlakatda Davlat byudjeti ijrosining natijaviyligini ta'minlash maqsadida ko'pgina chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'rta muddatli byudjetni rejalashtirishga o'tish keyingi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda byudjet islohotlarining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. O'rta muddatli byudjet strategiyasiga o'tish quyidagi zaruriyat bilan belgilanadi:

- Davlat byudjetini rejalashtirish va boshqarish tartibini takomillashtirish orqali investitsion xarajatlarni bo'lajak joriy xarajatlar bilan bog'lash imkoniyatlarini yaratilishi;

²⁶Azizova I. A. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: info COM. UZ nashriyoti. 2010. –B.123.

– bir yildan ortiq davrga mo'ljallangan davlat dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan bog'lanishni talab etilishi;

– davlat byudjeti xarajatlarini samaradorligini oshirish;

– ichki va tashqi resurslar, investitsion resurslarning konsolidatsiyalanishi;

– byudjet jarayonining rejalashtirilishi va ijrosining tiniqligini ta'minlanishi.

Byudjet xarajatlarini optimallashtirish byudjet jarayonini samarali tashkil etish bilan aniqlanadi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» uslubining mohiyati byudjet jarayonida asosiy e'tiborni «xarajatlarni boshqarishdan» «natijaviylikni boshqarish»ga o'tishga qaratishda namoyon bo'ladi. Bunga byudjetni o'rta muddatli istiqbolini belgilashni joriy etgan holda, byudjet jarayoni ishtirokchilari va byudjet mablag'larini boshqaruvchi sub'ektlar mas'uliyatini oshirish orqali erishiladi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish uslubini amaliyotga kiritish nafaqat, byudjet jarayonlarini butunlay o'zgartirib yuboradi, balki, davlat xarajatlari kontseptsiyasi mazmunini ham o'zgartiradi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» uslubini byudjet xarajatlari va erishilgan natijalar orasidagi o'zaro aloqani aks ettiruvchi byudjetniing shakllanishi va ijrosi sifatida belgilash mumkin. Byudjetlashtirishni ushbu uslubining maqsadi byudjetdan moliyalashtiriladigan faoliyatni baholashdir. Byudjet tashkilotning amalga oshirayotgan vazifa va funktsiyalari yakuniy kompleks baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

«Fransiyada davlat byudjeti, byudjet tizimi va byudjet jarayonini tashkil etish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalar tayyorlandi.

1. Fransiya hududi mamlakatni kommuna, departament, region, uchastka, okrug, kommuna kabi ma'muriy birliklar va hududiy jamoalarga bo'lish orqali boshqariladi. Byudjetni boshqarish usuli davlat birligi va yaxlitligini saqlab qolgan holda amalga oshiriladi. Fransiya moliya tizimida bir-biridan mustaqil bo'lgan ikki darajadagi byudjet mavjud, bular davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardir. Fransiya ikki bo'g'inli byudjet tizimiga ega.

2. Fransiya byudjet tizimini boshqarishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish talab etiladi: byudjetning bir yillik va ko'p yillik tamoyili; byudjetning ixtisoslashganlik yoki aniqlik tamoyili; byudjet birligi tamoyili; byudjetning umumiylik tamoyili; byudjetning haqqoniylik (xolislik) tamoyili.

3. Fransiya Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarish quyidagi sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi:

- Fransiya Banki yagona hisobvaraqlarni yuritadi va xarajat operatsiyalarini amalga oshirish uchun hisob-kitob tizimini taqdim etadi;

- Fransiya davlat g'aznasi mablag' oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini yuritadi, kassa xarajatlari uchun buyurtmalar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi va davlat byudjetining ijro etilishini kassali rejalashtiradi;

- “Frans Trezor” moliya agentligi yagona hisobvarag'idagi mablag'larning muayyan ijobiy qoldig'ini ta'minlaydi, ya'ni kassa zaxirasini qoplash uchun mablag'larni jalb qiladi.

4. Davlat byudjetining Yagona g'azna hisobvarag'idagi bo'sh mablag'lardan foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kredit resursi sifatida tijorat banklari Yagona g'azna hisobvarag'idagi bo'sh mablag'lardan vaqtincha foydalanish

imkoniyatiga ega bo'ladi.

5. O'rta muddatli byudjetni rejalashtirish – davlat byudjetini bir necha yilga (3-5 yilga) tuzish jarayonidir. Shunga ko'ra, «qisqa muddatli», «o'rta muddatli», «uzoq muddatli» kabi tushunchalar kiritildi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ushbu tizim shakllantirildi. 2018 yildan O'zbekiston Respublikasida rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish va shakllantirishning yangi tartibi joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rta muddatli byudjet tuzish kontsepsiyasi yaratildi. O'rta muddatli byudjet tuzish kontsepsiyasiga ko'ra, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni “yuqoridan-pastga” va “pastdan-yuqoriga” yondoshuvlari asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, “yuqoridan-pastga” yondoshuvida makroiqtisodiy prognoz modellari asosida 3-4 yillik byudjetning yuqori chegaralari aniqlanadi, “pastdan-yuqoriga” yondoshuvida esa vazirlik va idoralarning byudjet so'rovi ko'rinishida byudjet mablag'lariga 3-4 yillik talab aniqlanadi. Mamlakatimizda ham ushbu tizimni joriy etish bo'yicha ishlarni tezlashtirish kerak.

Bitiruv malakaviy ishida tayyorlangan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti bo'yicha quyidagi takliflar berildi.

1. Fransiya tajribalari asosida, byudjet tashkilotlariga shartnoma orqali xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish kerak. Mahsulot etkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan uch yilga shartnoma tuzish zarur, bunda har yili o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ko'rsatkichlarni indeksatsiyalash va ularga tuzatish kiritish mumkin.

2. Rivojlangan demokratik davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham byudjet loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari veb-sahifalarida joylashtirish va keng jamoatchilik e'tiboriga havola etish lozim.

3. Fransiyada byudjet islohotining muhim yo'nalishlaridan biri - «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish»ni joriy etishdir. «Natijaviylikka

yo'naltirilgan byudjetlashtirish» uslubi - moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo'lishi va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish» deganda, cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishilishiga qarab hamda davlat byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq taqsimlanadi.

4. O'zbekistonda ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

5. Bizning fikrimizcha, respublikamizda davlat byudjeti ijrosi uchun mas'ul hisoblangan g'aznachilik institutini rivojlantirish, uning funktsiya va vazifalarini hozirgi zamon talablari doirasida kengaytirish, Yagona g'azna hisobvarag'idagi davlat byudjeti mablag'larini boshqarishning Fransiya g'aznachilik amaliyotida sinalgan ijobiy natijalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Byudjet ijrosi jarayonida Yagona g'azna hisobvarag'ida jamlanadigan davlat maqsadli jamg'armalari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining bo'sh turgan qismini joylashtirish mumkin, olingan daromadlaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish hamda davlat byudjetining Yagona g'azna hisobvarag'idagi bo'sh mablag'larini samarali boshqarish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2014.-40b. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 2014 y. 16-son. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007 yil. 25 dekabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007 y. 52-son. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2013 y. 50-son. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini xamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 3231-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdaagi «O'zbekiston Respublikasi 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 2699-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdaagi «O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-3454-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldaagi «Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2753-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-son Farmoni.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari teplami. 2017 y. 6-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 martdaagi «Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlar to'g'risida»gi 2826-son Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 fevraldagi «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoyishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

11. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 2015 yil iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2015 yil. 18 yanvar.

12. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2016 yil.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2016 yil. 8 dekabr.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil,

qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2016 yil.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. -56 b.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. 2017 yil. 22 dekabr.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

17. Allayorov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. . – T.: IQTISOD-MOLIYA. 2015. – 248 b.

18. Azizova I. A. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: info COM. UZ nashriyoti. 2010. -152 b.

19. Зарипова И.Р.. Хафизова В.Р. История развития и современное состояние межбюджетных отношений в России. УФА. ГП Принт. 2016. 287 с.

20. Kasimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy byudjetlar. O'quv qo'llanma. – T.:Moliya. 2012. -260 b.

21. Kasimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.:Moliya. 2013. - 487 b.

22. Kasimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. -472 b.

23. Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. -108 b.

24. Kasimova G.A., Botirov A.A. Ijtimoiy soha:boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. Tamaddun nashriyoti. Toshkent davlat

sharqshunoslik instituti. T.: 2016. -216 b.

25. Kasimova G.A., Sholdarov D.A. Pensiya ta'minoti mablag'larini boshqarish. Monografiya. Toshkent.: 2017. 225 b.

26. Public budgeting systems / Robert Lee, Ronald Johnson, and Philip Joyce. Ninth Edition Copyright© 2013. by Jones & Bartlett Learning, LLC, an Ascend Learning Company.-587 b.

27. Pardaev U.U. Davlat byudjetini prognozlashtirish. Monografiya. – T.:«IQTISOD-MOLIYA». 2017. 240 b.

28. Po'latov D., Nurmuxamedova B. G'aznachilik. Darslik. – T.:Sano-standart. 2014. 272 b.

29. Практика государственного управления во Франции: Государственное казначейства. Сборник документов Франко-Российского сотрудничества. 2012. 172 с.

30. Saidov A.X. Fransiya Respublikasining Konstitutsiyasi o'zbek yuristi nigohida: o'zbek, frantsuz va rus tillarida.-T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2011.-72 b.

31. Eshnazarov T.Sh. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. -304 b.

32. G'aybullaev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: “Baktria press”. 2015. -168 b.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

33. Alimov I. Byudjet tizimi o'ziga xos xususiyatlar. \ Biznes-Ekspert. 2017 yil. №.7. –B.40-43.

34. Ahmadjonov Sh.A., Allaqulov A.A. O'zbekistonda natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi.//Moliya.– Toshkent. 2015. №3. –B.7-12.

35. Абалмаз В.В. Бюджетное устройства Франции.\\ Инновационная наука. 2017 йил. №.7. –С.5-11.

36. Bakaybaeva A.S. «UZASBO»: История создания и дальнейшие перспективы применения в бюджетном учете.
37. \ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. -Toshkent. 2017. -№3. iyun.
38. World Bank Population Estimates and Projections (2016).
39. Jabborov M. Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish yo’nalishlari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. Toshkent. 2017 yil. 15 noyabr. -B.371-372.
40. Islomkulov A. “Natijaviylikka yo’naltirilgan byudjetlashtirish” tizimiga o’tish orqali byudjet jarayonini takomillashtirish. \ Moliya. –Toshkent. 2016. №2.. –B.8-14.
41. Karimova Z.X. Davlat byudjetining Yagona g’azna hisobvarag’idagi mablag’larni boshqarish masalalari. www.interfinance.uz.\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. -Toshkent. 2017. -№1. fevral.
42. Kasimova G.A. G’aznachilik sharoitida Davlat byudjetini samarali boshqarish. www.interfinance.uz.\ “Xalqaro moliya va hisob” elektron jurnali. -Toshkent. 2016. -№3. dekabr. – B.1-11.
43. Kasimova G.A. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida ijtimoiy ta’minotning o’rni va ahamiyati. \ Biznes-Ekspert. 2017 yil. №.12. –B.30-33.
44. Кучкаров Т.С. Килберг В.Г. О необходимости совершенствования системы сбора налогов и пошлин при казначейской системе. Davlat moliyasini isloh etishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent. «IQTISOD-MOLIYA». 2015 yil. 18 iyun. 71-73b.
45. Marchen Кучкаров Т.С. Килберг В.Г. О необходимости совершенствования системы сбора налогов и пошлин при казначейской системе. 2015 г. 18 июн. 71-73 с.
46. Марченко Г.В., Мачулская О.В. Финансовые механизмы межрегио-

нального виравнивания // Финансы и кредит. 2016. № 1. С. 13-20.

47. Урбан Ю. М. Современное экономическое состояние Франции // Сборник научных статей студентов, магистрантов, аспирантов. Под общ. ред. В. Г. Шадурского. Минск: Издательство «Четыре четверти». 2016. –С.71-77.

48. Урбан Ю. М. Современное экономическое состояние Франции // Сборник научных статей студентов, магистрантов, аспирантов. Под общ. ред. В. Г. Шадурского. Минск: Издательство «Четыре четверти». 2016. –С.71-77.

49. Toshmuxeamedova D., Karimova N. Byudjet resurslarini samarali boshqarish masalalari. Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish. Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2017 yil. 15 noyabr. -B.413-414.

50. Public spending structure, minimal state and economic growth in France (1870–2010). Public spending structure, minimal state and economic growth in France (1870–2010).

51. Rodrigo A.Cerda. The Chilean pension reform: A model to follow? . [Journal of Policy Modeling Volume 30, Issue 3](#), May–June 2008. Pages 546-558.

52. Haydarov N. Davlat qarzlarini bartaraf etish masalalari. // Moliya. - Toshkent. 2013. -№1. – В. 14-19.

53. Haydarov N. Davlat moliyasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni. // Moliya. – Toshkent. 2015.- № 1.– В.5-14.

54. Тсеплова Э.С Особенности налоговой системы и налогового контроля во Франции// Финансы. 2016. –S.20-25.

5.Internet-saytma'lumotlari

55. www.lex.uz(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi).

56. www.treasury.uz(O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi).

57. www.mf.uz(O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

58. www.pfru.uz/uz/(O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi).

59. «Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish kontseptsiyasi» loyihasi. http://pfru.uz/uz_Cyrl/page/518/davlat-pensiya-taminoti-tizimini-islo-etish-koncepciyasi-loyiasi

60. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0161893807000129>

61. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264999317313718>

62. <https://www.visa.com.ru/>

63. Gosudarstvenniy byudjet po stranam. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>